

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

Qo`lyozma huquqida

UDK:809.51.087

BBK:81.2-67

X-15

XOJIMURODOVA KAMOLA FURKATOVNA

**“Xitoy tilidan o`zbek tiliga tarjima qilingan asarlarda milliy
koloritning berilishi”**

5A120201-Tarjima nazariyasi va amaliyoti(turlari boyicha)

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

dots.J.T.Ziyamuhamedov

Toshkent – 2013

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3
I BOB. LYAO JAY ASARLARINING O'ZBEK TILIGA TARJIMALARI VA LYAO JAY.....	9
1.1.L yao Jayning xitoy adabiyotida tutgan o'rni.....	17
1.2. Lyao Jay asarlarining tarjimalari.....	22
I bob bo'yicha xulosa.....	29
II BOB. TARJIMADA TARIXIY MILLIY MUHITNI QAYTA YARATISH.....	31
2.1. Tarixiy so'zlar va frazeologizmlar tarjimasida milliy kolorit	31
2.2. Novellalarda tarixiy an'analarning aks ettirilishi.....	49
II bob bo'yicha xulosa.....	56
III BOB. LYAO JAY NOVELLALARIDA MILLIY KOLORIT IFODASI.....	57
3.1. Novellalarda milliy bayram , marosim va an'analarning berilishi.....	57
3.2. Geografik joy nomlarining aks ettirilishi.....	61
III bob bo'yicha xulosa.....	68
XULOSA.....	69
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.....	74

KIRISH

O'zga tilda bitilgan badiiy yodgorlikning davr talabi darajasida tasavvur beradigan tarjima matnini yaratish san'atkorning bu sohadagi amaliy va nazariy bilimlar bilan puhta qurollanishi zaruratini tug'diradi. Tarjimada shakl va mazmun munosabatini bejirim talqin etish zarurati san'atkor oldiga asarning badiiy nafosati va milliy hususiyatini yuzaga keltiruvchi barcha lisoniy uslubiy vositalar vazifalarini ijodiy aks ettira oladigan muqobil til va nutq birliklarini tanlash vazifasini qo'yadi. Insoniyat faoliyatining qadimgi turlaridan bo'lmish tarjimachilik faoliyati keyingi yarim asr mobaynida misli ko'rilmagan sur'atlar bilan rivojlanib bormoqdaki, bunday amaliyot tadqiqotchilar e'tiborini keng ko'lamda o'ziga tortgani holda, eng samarador usullar vositasida nazariy umumlashtirilishi uchun zarurat vujudga kelmoqda.

Tarjima xalqlar o'rtasidagi do'stlik, qardoshlik va hamkorlik manfaatlariga, ular o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, ilmiy, madaniy va adabiy aloqalarning kengayishiga xizmat qiluvchi qudratli quroldir.¹

Tarjima turli xalqlar adabiyotlarining o'zaro aloqasi va bir-biriga ta'siri jarayonini tezlashtiradi.

Tarjimaviy asarlar tufayli kitobxonlar jahon adabiyoti durdonalaridan bahramand bo'ladilar, ularning estetik tuyg'ulari oshadi, didlari o'sadi, ularda go'zal narsalar haqida tushunchlar hosil bo'ladi.

Magistrlik dissertatsiyada qo'yilgan **muammoning dolzarbligi** shundan iboratki, har qanday chet tilini, jumladan, xitoy tilini o'rganayotganda tilning nafaqat ichki qobig'iga ya'ni uning grammatik qonun-qoidalariga e'tibor berish kerak, balki uning tashqi qobig'iga ya'ni tarjima jarayonida jumalarni to'g'ri va munosib o'rinda ishlata olish, o'quvchida yuqori saviyadagi taassurot uyg'ota olish lozim deb o'ylaymiz.

Magistrlik dissertatsiyasi doirasida tanlangan mazkur masala, ya'ni xitoy tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan asarlar asosida tarjima nazariyasining

¹ Musayev Q., Tarjima nazariyasi asoslari. O'zbekiston Respublikasi: Fan, 2005. -B.5.

milliy va tarixiy kolorit tushunchalarini tahlil qilish orqali, milliy va tarixiy koloritning ahamiyatini o'rganish orqali Xitoy xalqining ruhiyatini, adabiyotini, o'ziga xos tomonlarini, tilning nozik jabhalarini tushunib yetishimizda birlamchi o'rin egallaydi.

Barkamol avlodni shakllanishida chet tillarni o'rganish, ayniqsa, xitoy tilidagi asarlarni tahlil qilishga bag'ishlangan ko'plab darslik, o'quv qo'llanmalarining yaratilishiga zamin aynan magistrlik dissertatsiyasini yozishdan zamin, poydevor yaratiladi.

O'zbekiston xitoyshunoslik maktabining shakllanishida bu kabi muamolarning yechim topishi nihoyatda dolzarb.

So'zimizning isboti sifatida Prezidentimiz I.A.Karimovning: “Xalqimizning asrlar osha yashab kelgan an'analari, urf–odatlari, tili va ruhi negiziga qurgan milliy mustaqillik mafkurasi umuminsoniy qadriyatlar bilan mahkam uyg'unlashgan holda kelajakka ishonch tuyg'usini odamlar qalbi va ongiga yetkazish, ularni Vatanga muhabbat, insonparvarlik ruhida tarbiyalashi, halollikni, mardlik va sabr – bardoshlikni, adolat tuyg'usini, bilim va ma'rifatga intilishni tarbiyalash yo'lida hizmat qilmog'i lozim”², - degan so'zlarini keltirishimiz mumkin.

Insoniyat yaratgan ma'naviy madaniyat yahlit butunlikdir. Zero, Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, “...jamiyat ma'naviyatsiz ma'naviy – ahloqiy qadriyatlarsiz yashay olmaydi. Uni pisand qilmagan jamiyat pirovard oqibatda tanazzulga yuz tutadi.”³

Bugungi kunda O'zbekistonning dunyo hamjamiyati bilan integratsiyalashuv jarayoni faol rivojlanib bormoqda. Bu rivojlanish ularning tilini ham o'rganish dunyo talablaridan biriga aylanib bormoqda. Shular qatorida XXR bilan ham munosabatlar mustahkamlanib bormoqda.

² Karimov I.A., O'zbekiston buyuk kelajak sari.- Toshkent, 1998.- B.311.

³ „Inson baxt uchun tug'iladi” .O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimovning hikmatli so'zlaridan. Toshkent, Sharq nashriyoti,1998y.

“O‘zbekiston- Xitoy” do‘stlik jamiyati xalqlarimizning do‘stlik rishtalari va madaniy aloqalarini mustahkamlashga munosib hissa qo‘shmoqda. 1998 yilda tuzilgan ushbu tashkilotning asosiy vazifasi ikki mamlakat fuqarolarini O‘zbekiston va Xitoy tarixi, madaniyati va san‘ati, xalqlarimizning urf-odatlarini, an‘ana va qadriyatlari bilan yaqindan tanishtirishdan iborat. Pekin shahrida 2005 yilda o‘z vakolatxonasini ochgan “O‘zbekiston madaniyati va san‘ati forumi “jamg‘armasi milliy madaniyatimiz, qadriyat va an‘analarimiz hamda boy tarixiy merosimiz va betakror san‘atimizni Xitoyda keng targ‘ib etishga xizmat qilmoqda.”⁴

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Ushbu magistrlik dissertatsiyada xitoy tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan asarlar doirasida dots.M.X.Mahmudxo‘jayev va J.T.Ziyamuhamedovlar tomonidan tarjima qilingan Pu Sunglingning “Lyao Jay rivoyatlari” kitobidan kengroq foydalanildi.

“Lyao Jay Jeyi” rivoyatlari dunyoning ko‘p tillariga tarjima qilingan. “G‘arb va Rus adabiyoti tarixchilari ham Pu Sungling novellalariga yuqori baho berganlar hamda yozuvchining yuzdan ortiq novellasini g‘arb va rus tillariga tarjima qilganlar. G.Djaylz yozuvchining novellalarini “Ming bir kecha” ertaklari bilan tenglashtiradi. Italyan yozuvchisi Di Giura esa Pu Sungling asarlarini tarjima qilib , “Lyaojay jeyi” asarini Xitoyning “Dekameron”i deb atash mumkinligini aytadi.”⁵ O‘zbek tiliga esa, birinchi marotaba dots. M.X. Mahmudxo‘jayev hamda f.f.n.dots. J.T.Ziyamuhamedov tomonidan tarjima qilinib nashrga tavsiya etildi. Mazkur kitobning birinchi va ikkinchi qismlarida berilayotgan Pu Sunglingning 112 betdan tashkil topgan 19 ta rivoyati 1984 yili Pekin tillar instituti tomonidan tayyorlanib, chop etilgan “Lyao Jay rivoyatlari” kitobidan tarjima qilindi.

Pu Sunglingning asarlari xalq orasida folklor sifatida tarqalgan afsona, shuningdek rivoyatlarga asoslangan. U afsona va rivoyatlar yozuvchining

⁴ <http://gov.uz/uz/press/politics/14731>

⁵ Dots. M.X.Mahmudxo‘jayev., dots.J.T.Ziyamuhamedovlar., Pu Sungling. Lyao Jay rivoyatlari.- T.:ToshDSHI nashriyoti , 2003.- B.6.

qalamiga tushgandan so'ng zamon talabiga mos ravishda sayqallanib, badiiy tus olgan. Shu sababli, uning o'ziga "Lyao Jay" deb tahallus qo'yishi bejiz emas. Chunki bu ism xitoy tilida "suhbatxona" yoki "nonushta vaqtidagi suhbat" ma'nolarini anglatadi.⁶ Yozuvchi o'zining har bir asarini ko'p izlanishlar jarayonida mexnatkash omma bilan suhbatlashish va unga ijodiy yondashishlar orqali yaratgan.

"Pu Sungling asarlari orasida yorqin ko'zga tashlangani bu "Lyaojay Jeyi", ya'ni "Lyaojayning rivoyatlari" nomli asaridir. Bu asar 16 jildidan iborat bo'lib, 491 hikoyani o'z ichiga olgan va birinchi marotaba 1766 yilda chop etilgan."⁷

Pu Sunglingning "Lyaojay rivoyatlari" to'plami hozirda xitoy tilidan tarjima qilingan asarlar ichida eng yangisi hisoblanadi. Shuning uchun ushbu asarni magistrlik dissertatsiyasi uchun qisman bo'lsa-da mavzu qilib tanladik. Ushbu asar tarjimasi qiyosiy jihatdan ilk bora o'rganilmoqda.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari mavzuning dolzarbligi va hususiyatidan kelib chiqadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi Pu Sunglingning dots. M. X. Mahmudxo'jayev va dots. J. T. Ziyamuhamedovlar tarjimasidagi "Pu Sungling. Lyaojay rivoyatlari" to'plami tarjimasida milliy koloritning qayta yaratilishini o'rganishdir. Bu maqsadni amalga oshirish quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

- Lyao Jay asarining o'zbek tiliga tarjimasini o'rganish va tahlil qilish;
- Xitoy novellisti Pu Sunglingning hayoti va ijodi bilan tanishish hamda uning ijodida milliy koloritning ifodalanishini o'rganish;
- Lyao Jayning xitoy adabiyotida tutgan o'рни va ahamiyatini tadqiq etish;
- asar tarjimasida milliy koloritning qayta yaratilishini tahlil qilish;

⁶Dots. M.X.Mahmudxo'jayev., dots.J.T.Ziyamuhamedovlar., Pu Sungling. Lyao Jay rivoyatlari.- T.:ToshDSHI nashriyoti, 2003.- B.3.

⁷ O'sha manbaa. B.4.

- Tarixiy soʻzlar tarjimasida milliy koloritning ifodalanishini bayon etish;
- Novellalarda tarixiy anʼanalarning aks ettirilishini oʻrganish va tahlil qilish;
- Lyao Jay novellalarida milliy koloritning ifodalanishini tadqiq etish .

Tadqiqot obyekti boʻlib Pu Sunglingning “ Lyaojay rivoyatlari” toʻplamining Pekin tillar institutida xitoy tilida chop etilgan nusxasi xizmat qiladi.

Tadqiqotning metodologik asosi va asosiy ilmiy metodi. Gʻ.Salomov,⁸ J.Sharipov,⁹ N.Komilov, N.Otajonov, A.Umarov , Q.Musayev,¹⁰ Z.Isomiddinov kabi oʻzbek va boshqa qardosh xalqlar tarjimashunoslarining badiiy tarjima, tarjimon mahorati, tarjimada muallif uslubi, tarixiy va milliy koloritning qayta yaratish masalalariga bagʻishlangan ilmiy tadqiqotlari **tadqiqotning metodologik asosini** tashkil etdi.

Dissertatsiyada asosan qiyosiy metoddan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Ilmiy ishning yangiligi, avvalo, dots. M.X. Mahmudhoʻjayev va dots. J.T.Ziyamuhamedovlar tomonidan bevosita xitoy tilidan oʻzbek tiliga oʻgirilgan Pu Sungling qalamiga mansub “Lyao Jay rivoyatlari” toʻplamining birinchi marta tadqiqot obʻyekti qilib olinganida koʻrinadi va mazkur asar tarjimasi misolida xitoy tilidan oʻzbekchaga tarjimada milliy koloritning qayta yaratilishi, badiiy tarjimaning hamisha qiziqarli va murakkab muammosi boʻlib kelgan frazeologizmlarning tarjimada berilishi va shunga oʻxshash bir qator masalalarning oʻrganilganligini ham tadqiqotning ilmiy yangiliklari sirasiga kiritish mumkin. Xitoy adabiyotidan tarjimaning ayrim konkret masalalariga bagʻishlangan bu kabi ishlar kelgusida yaratiladigan yaxlit tadqiqotlar yoʻlidagi oʻziga xos bosqichlar hisoblanishi bilan ham oʻziga hos ilmiy ahamiyat kasb etadi.Yana shuni

⁸ Salomov Gʻ., Tarjima nazariyasi asoslari.- T,1983.

⁹ Sharipov J., O'zbekistonda tarjima tarihidan .- O'zbekiston.- 1965.

¹⁰ Musayev Q.,Tarjima nazariyasi asoslari. - Fan.-2005.

ta'kidlash lozimki , birinchi marotaba xitoy tilidagi asarlarda milliy kolorit tushunchasi o'rganildi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati Pu Sunglingning “Lyaojay rivoyatlari” to'plami tarjimasi misolida xitoy adabiyotidan o'zbek tiliga tarjimada milliy koloritning qayta yaratilishi bir necha yo'nalishlar bo'yicha keng o'rganilgan.

Ushbu magistrlik dissertatsiyasi kelgusida xitoy tilidan o'zbek tiliga tarjima muammolari bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlar uchun yordamchi manbalardan biri bo'ladi, deb o'ylaymiz.

Ushbu magistrlik ishining asosiy natijalaridan oliy o'quv yurtlarida qiyosiy adabiyotshunoslik, badiiy tarjima nazariyasi va amaliyoti, tarjima tarixi va tanqidi fanlari bo'yicha mashg'ulotlar olib borish, maxsus kurslar o'qish, turli uslubiy tavsiyanomalar, darsliklar va qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning hajmi va tuzilishi. Tadqiqot ishimiz Kirish, uch bob, har bir bob o'z ichiga olgan kichik tarkibiy qismlar, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

Birinchi bob “Lyao Jay asarlarining o'zbek tiliga tarjimasi” deb nomlangan va o'z ichiga “Pu Sunglingning hayoti va ijodi” , “Lyao Jayning xitoy adabiyotida tutgan o'rni” va “ Lyao Jay asarlarining tarjimasi” deb nomlangan kichik bo'limlarni qamrab olgan .

Ikkinchi bob “Tarjimada tarixiy milliy muhitni qayta yaratish” deb nomlangan va o'z ichiga “Tarixiy so'zlar va frazeologizmlar tarjimasida milliy kolorit” va “Novellalarda tarixiy an'analarning aks ettirilishi” deb nomlangan ikki kichik bo'limni qamrab olgan.

Uchinchi bob “Lyao Jay novellalarida milliy kolorit ifodasi” deb nomlangan bo'lim bo'lib, o'z ichiga “Novellalarda milliy bayram, marosim va an'analar” va “Geografik joy nomlarining aks ettirilishi” deb nomlangan ikki bo'limdan iborat. Har bir bob yakunida qisqacha hulosalar keltirilgan .

I BOB. LYAO JAY ASARLARINING O'ZBEK TILIGA TARJIMALARI VA LYAO JAY

O'zbekiston va Xitoyning ijtimoiy- siyosiy, savdo-sotiq va madaniy adabiy aloqalari tarixi minglab yillarga borib taqaladi. Qadim-qadimlardan "Chin-Mochin" sifatida mashxur bo'lgan Xitoyni xalqimiz bilan, avvalo, Buyuk Ipak yo'li bog'laydi.

Shu o'rinda Xitoy bilan madaniy-adabiy aloqalarimizni yaqqol tasdiqlaydigan bir misol keltirish mumkin. Ulug', mutafakkir shoir "Farhod va Shirin" dostoniga Chin xoqonining o'g'li Farhodni bosh qaxramon qilib olgan edi. Shu birgina misolning o'zi o'zbek xalqi, o'zbek adabiyoti bilan xitoy adabiyoti o'rtasidagi munosabatlar naqadar katta ekanligini bildiradi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng xalqimiz orasidagi munosabatlar yanada rivojlandi.

Har ikki davlat Buyuk Ipak yo'lida joylashganligi uchun ham ko'p sohalarda ushbu hamkorlik chuqur tarixiy ildizlarga ega. Badiiy adabiyot sohasida esa xitoy adabiyoti o'ziga hos shakllari, janrlar xilma- xilligi va mo'jizaviyligi bilan o'zbek kitobxonlarini ham doimo qiziqtirib kelgan . Ayniqsa, Xitoy adabiyotidagi masal, novella , sehrli novella janrlari butun jaxon adabiyotshunosligi e'tiboriga sazovor bo'lganligi ham bejiz emas.¹¹

"Xitoy adabiyoti uch ming yilga yaqin tarixga ega bo'lib , o'zining uzoq mashaqqatli hamda sharaflil rivojlanish jarayonida yuzlab turli janrdagi san'at asarlarini yaratgan , adabiyot namoyondalarini shakllantirib, xitoy va jahon halqlariga taqdim qilgan .

Xitoy adabiyoti nafaqat mamlakat ichida shakllanibgina qolmay , balki boshqa qo'shni xalqlar adabiyotiga , jumladan Yaponiya, Koreya va Vietnam adabiyotiga ham o'zining ulkan ta'sirini ko'rsatdi. Ayniqsa Yaponiya va Koreya xalqlari adabiyotining ayrim namunalari mumtoz

¹¹ Dots. M.X.Mahmudho'jayeov., dots. J.T.Ziyamuhamedov., D.M. Qodirova., Sharq adabiyoti janrlari (Xitoy xalq masallari)-. T, Tosh DSHI nashriyoti , 2005.- B.3.

xitoy adabiyotining durdona asarlaridan ilhomlanib yozilganligi , romanlar va hikoyalar , ulardagi janr , syujet va kompozitsion uslub o'xshashligi , xatto ayrim joylarda aynan bir xilligi , bularga sabab esa o'sha davrda qadimgi xitoy adabiy tili bo'lgan "venyan" – bu mamlakatlar hududida hukmron til bo'lganligida. Bu haqda dots. J.Ziyamuhamedov o'z ilmiy maqolalarida asosli ravishda ko'rsatib bergan¹².

O'zbekistonda mumtoz xitoy adabiyotini o'rganish bo'yicha ham birmuncha ishlar qilingan . Dots. M.X.Mahmudxo'jayev va dots. J.T.Ziyamuhamedovlar hammuallifligida ikki qismdan iborat "Lyaojay rivoyatlari"¹³, hamda Sharq adabiyoti janrlari turkumidan "Xitoy xalq masallari"¹⁴, J. Ziyamuhamedov tomonidan "Tan davri novellalari"¹⁵ nomli xitoy adabiyoti bo'yicha xrestomatik o'quv qo'llanma va ilmiy risolalar chop etilgan.

Shunday ijodkorlardan biri hikoyanavis yozuvchi Pu Sunglingdir. Xitoyshunos olimlarning ma'lumotlariga ko'ra , Lyao Jay tahallusi bilan ijod qilgan ulug' xitoy hikoyanavisi Pu Sungling 1640 yilda Sharqiy Xitoyning Shandung viloyatida tavallud topib , 1715 yilda vafot etgan.¹⁶

Lyao Jay tug'ilgan o'lka haqidagi " Shandung o'lkasidagi Zichuan tumani tavsifi" nomli qadimiy xitoy yilnomasida yozilishicha , uning ismi Sungling, balog'at yoshiga yetgandagi nomi Lyu Shan, do'stlari bergan laqabi esa Lyu- Chuan bo'lgan.¹⁷

Pu Sungling 1640 yilda XXRning Shandung o'lkasi Zichuan tumanida tug'ilib, 1715 yilda , 76 yoshida vafot etgan. Pu Sungling yoshligida juda qobiliyatli bo'lib , o'z hayoti davrida olim, shoir ayniqsa, hikoyanavis yozuvchi sifatida tanilgan. Uning yozuvchilik taxallusi Lyu

¹² J.Ziyamuhamedovning "Язык , культура и общество на перекрёстке цивилизации" mavzusidagi halqaro konferensiya materiallari asosida chop etilgan "Труды и материалы" to'plamidagi "Литературные связи Японии и Китая" nomli maqolasi. Toshkent-Sukuba .2006.- B.131.

¹³ Dots. Mahmudxo'jayev M ., dots. Ziyamuhamedov J. Lyaojay rivoyatlari (1 va 2 qism). –T,2004.

¹⁴ Dots. Mahmudxo'jayev M., dots. Ziyamuhamedov J., Qodirova D . Xitoy xalq masallari . T, 2005.

¹⁵ Dots. Ziyamuhamedov J., Xolboyev B . Tan davri novellalari. –T, 2006.

¹⁶ (Pu Sungling hayoti yilnomasi). I, II – Pekin 1962; (Pu Sungling tarjimai holi).- 1970.- B.23.

¹⁷ Dots. J.T. Ziyamuhamedov "O'rta asr xitoy novellalari" T.; ToshDSHI nashriyoti, 2010.- B.12.

Chuanjyushi va Lyaojay bo'lgan , lekin asarlarining ko'p qismi Lyaojay taxallusida chop etilgan.”¹⁸

Ya . Prushekning tahminicha , Pu Sungling ajdodlari Xitoyga XIV asr boshlarida kelib qolgan bo'lib , Yuan mo'g'ul sulolasi hukmronligi davrida yuksak martabalarga erishgan mo'g'ul yoki hatto turkiynasab mulozimlardan bo'lishgan . Ba'zi manbalarda uning mo'g'ulligiga ham ishora qilinadi.

Pu Sunglingning avlodi hech qanday lavozimga ega bo'lmagan , bobosi Pu Shenjuy va otasi Pu Pan esa, hatto talaba ilmiy darajasini olish uchun ham imtihon topshira olmaganlar.¹⁹ Oila batamom qashshoqlikka giriftor bo'lgan . Pu Sunglingning otasi Pu Pan yigirma yil davomida attorlik bilan shug'ullangan . Uning bir odati bor edi, ozgina boylik orttirishi bilanoq , darhol ishini tashlab , oila, bola – chaqasini ham unutib , turli ehsonlar qilar , qashshoqlarga biroz bo'lsa ham yordam berib , ibodatxonalar qurar edi. ²⁰ Moddiy jihatdan inqirozga uchrab tushkunlikka tushgan feodal oilasidan chiqqan Pu Sunglingning butun umri qishloqda o'tadi. U mexnatkash xalqning dardini yaxshi tushungan va ular hayotini o'z ijodida jonli tasvirlab bera olgan. Lekin u o'zining hayotini quvg'in va havf ostiga qoldirmaslik maqsadida bosh qahramonlarini hayoliy tasvirlar, jin va tulki siymolari orqali ifodalab, jamiyatda bo'layotgan noxaqliklarni, poraxo'rlikni va zo'ravon kishilarning xalq ustidan olib borayotgan ishlarini qoralagan va shu bilan birga , adolatni, ayniqsa yoshlarning sof muhabbatini o'z asarlarida yoritib bergan. Lyaojay fikri bo'yicha , g'ayrioddiy ishlarni faqat sexrgar rohiblar emas, balki adolatli va haqiqatgo'y, irodali va g'ayratli bo'lgan oddiy odamlar ham bajarish mumkin bo'lgan.

Pu Sungling davrida hozirgi zamonaviy adabiy til (bay hua) vujudga kelgan bo'lsa-da, u o'zining “ Lyaojay Jeyi” rivoyatlarini klassik xitoy tili (venyan)da yoritadi, chunki shu davrda klassik til hukmronlik doirasida

¹⁸ J.Ziyamuhamedov., M.Mahmudhodjayev ., Pu Sungling .Lyao Jay rivoyatlari .-T.;ToshDSHI nashriyoti, 2003, B.3.

¹⁹ Lavozimlarga davlat imtihonlari orqali tayinlash tizimi Xitoyda Xan imperatori U Di(mil.av. 140-87 yillarda hukmronlik qilgan) davrida vujudga kelgan.

²⁰ Алексеев В. М., Китайская классическая проза. –М, 1958.- С.4-6

rasmiy ravishda qo'llanilib, bu tilda yozilgan asarlarni chop etish anchagina yengil bo'lgan.

Pu Sungling uchinchi o'g'il bo'lib, faqat oilada olingan ta'lim bilan qolib ketgan deb tahmin qilinadi.

1657 yili uni olim Lyu Godinning qiziga uylantirib qo'yishadi. Pu Sunglingning onasi kelini haqida "uning qalbi pok va mehribon, go'daklardek musaffo" der edi.

1658 yili Pu Sungling tumanda imtihon topshirib, Tunshen unvonini olishga erishadi. Bu unga faqat ilmiy daraja olish uchun imtihon topshirish huquqini berardi, holos. Biroq Pu Sungling qancha urinmasin, navbatdagi imtihonni 1711 yilgacha topshira olmadi. Nihoyat, 71 yoshida bu ishga muvaffaq bo'ldi va davlat hizmatida ishlash huquqini oldi.²¹

1663 yili otasi vafot etgach, oila qashshoqlik girdobiga tushdi va Pu Sungling ma'lum muddat olim bo'lib yetishgan do'sti Li Simeynikida yashashga to'g'ri keladi.

1713 yilda u o'z ayolidan ayrilib qoladi. 1715 yilning 25 fevralida esa, Pu Sunglingning o'zi ham vafot etadi. Vafotidan o'n yil o'tgandan so'ng Pu Sungling qabriga qo'yilgan yodgorlikdagi bitikni uning yurtdoshi Jang Yuan shunday so'zlar bilan yakunlaydi: "Asarlaridagi fikrlar va ruhgina uning nomini bizning kunlardan olib, kelajak asrlarda qolish imkonini beradi"²²

Pu Sunglingning tahllusi suxbatxona, suxbat so'zlari bilan bog'liq. Pu Sungling tug'ilib o'sgan Shangdung o'lkasidagi qishloqda katta bir yo'l o'tgan bo'lib, bu yo'l orqali to'rt tomon bog'lanardi. Uning uyi esa ana shu yo'l chetida joylashgan edi. Yozning issiq kunlarida u eshik oldiga chiqib olib nimalarnidir yozmoqchi bo'lar, chuqur hayollarga cho'mib, bir nimalarni o'ylab qolardi. Kunlarning birida Pu uyi yonida janubdan charchab kelayotgan bir odamni uchratib, u bilan suxbatlashib qoladi.

²¹ Akademik V.M.Alekseyev Pu Sunglingni "doimiy talaba" deb ataydi va ijodida davlat imtihoniga topshirishga jur'at etganlarni aniq va yorqin bo'yoqlarda tasvirlay olishi zahirida o'zining bunday hollardagi omadsizligi yotar edi, deb hisoblaydi.

²² Dots. Ziyamuhamedov J.T. O'rta asr xitoy novellalari.- T, Tosh.D.SH.I institute, 2010.- B.14-15

Suhbatdan so'ng u odamlar bilan suhbatdan anchagina qiziqarli ma'lumotlar to'plash mumkinligini anglab yetadi. Shu kunning o'zidayoq bir necha kiyimlarini yig'ishtirib, bozorda pullaydi. Bu pulga besh dou²³ mosh olib uyiga qaytadi. Eshigi oldidagi ikki majnuntol soyasiga buyra yozib yoniga bir xum o'rnatadi va sotib olgan moshidan taom tayyorlab sovutilgan holda ana shu xumga joylaydi. Pu Sunglingning uyi katta yo'lning qoq markazida joylashganligi sababli ko'pgina toliqqan, chanqagan, biror joyga safar qilib ketayotgan yoki qaytayotgan yo'lovchilar majnuntol tagiga biroz dam olish uchun o'tirishardi. Pu Sungling ana shu fursatdan foydalanib, yo'lovchilarga chanqovbosdi taomlaridan berib, ularni o'z suxbatiga tortardi. Suhbat chog'ida u yo'lovchilardan ko'plab qiziqarli g'aroyib, ma'nodor rivoyatlarni bilib olar va ularni qog'ozga tushirardi. Mana shu joyni u keyinchalik "suhbatnoma" deb nomlaydi.

Shu tariqa mazmunan bir-biridan boy, qiziqarli novellalar dunyoga kelardi. Shu sababli bo'lsa kerak uning asarlarini nafaqat Xitoy xalqi, balki, butun dunyo adabiyot namoyandalari va muhlislari ham qiziqib o'qiydilar.

Pu Sungling asarlari orasida yorqin ko'zga tashlangani bu Lyaojay Jeyi, ya'ni "Lyaojayning rivoyatlari" nomli asaridir. Bu asar 16 jilddan iborat bo'lib, 491 hikoyani o'z ichiga olgan va birinchi marotaba 1766 yilda chop etilgan.

"Pu Sungling ijodi Xitoy jamiyatining eng og'ir inqirozga yuz tutgan davriga to'g'ri keladi. Bu davrda Xitoyga yot bo'lgan Manjur-Chin sulolasi hukmronlik qilar edi. Shu sababli bu jamiyatda milliy ziddiyatlar avj olgan, shu bilan birga Xitoy xalqi feodal hukmronlar zulmi ostida og'ir hayot kechirardi.

Moddiy jihatdan inqirozga uchrab tushkunlikka tushgan feodal oilasidan chiqqan Pu Sunglingning butun umri qishloqda o'tadi. U mehnatkash, halqning dardini yaxshi tushungan va ular hayotini o'z ijodida jonli

²³ Dou- hajm o'lchami, bir -dou 10 litrga yaqin. O'rta asrlarda Xitoyda donli mahsulotlar dou jam birligida o'lchangan.

tasvirlab bera olgan. Lekin u o'zining hayotini quvg'in va havf ostida qoldirmaslik maqsadida bosh qahramonlarini hayoliy tasvirlar, jin va tulki siymolari orqali ifodalab, jamiyatda bo'layotgan nohaqliklarni, poraxo'rlikni va zo'ravon kishilarning xalq ustidan olib borayotgan ishlarini qoralagan va shu bilan birga, adolatni, ayniqsa, yoshlarning sof muhabbatini kuylagan. Asarlaridagi ayol qahramonlarda tashqi go'zallikdan ko'ra ichki go'zallik mujassamdir. Pu Sunglingning feodal Xitoyda hukm surgan adolatsizlik, poraxo'rlikka qarshi g'azabi butun ezilgan Xitoy xalqining g'azabi edi. U o'z asarlarida Xitoy jamiyatidagi yovuzlik, adolatsizlikka asosiy sababchilar zolim, kaltabin hokim va amaldorlardir, demoqchi bo'ladi. Ular qobiliyatli, aqlli odamlarni davlat imtihonidan²⁴ yiqitib, noshud va kaltabinlarga davlat xizmatiga yo'l ochib berayotganini badiiy bo'yoqlar asosida ko'rsatib berishga harakat qiladi.²⁵

U o'z asarlarida o'zgacha fantastik dunyo yaratadi, uning qahramonlari ana shu fantastik dunyoga ravona bo'ladilar va u yerda go'zal parilar duch kelib, baxt, farovonlik ato etishadi. Haqiqiy hayotga g'ayrioddiy kuchlar qo'shiladi.

Pu Sungling yaratgan fantastik dunyo inson ishlariga haqiqiy adolatli baho beradi. Yozuvchining fantaziyasi bilan yaratilgan ko'plab kuchlar qo'rqqoq, sotqin, yolg'onchilarni jazolab o'qimishli, ezgu qalb egalari bo'lgan haqiqiy toliba ilmni, yuqori insoniy baxt, fazilatlar bilan ulug'laydi. Lyao Jay hikoyalarida asosiy qahramonlar sexrgar rohiblar hisoblanadi. Muallifning ixtiyori bilan, ular materiyaning bir shakldan boshqa shaklga o'tishini, sexrgarlik sirlarini bilib, haqiqat va adolat tarafidagi odamlarga yordam berib yovuz va zulmkorlarni jazolaydilar.

²⁴ Davlat imtihonlari orqali amaldorlik lavozimlari bilan tayinlash tizimi Xitoyda Han imperatori U Di (miloddan avvalgi 140-87 yillarda hukmronlik qilgan) davrida vujudga kelgan. Tang imperatori TayZung (milodning 627-649 yillari taxtda o'tirgan) davriga kelib bu tizim yana ham takomillashtirilib, rasmiy tus oldi. Xitoy tilida bu tizim "keju" deb ataladi, o'zbekcha "ilm asosida martabaga erishish" degan ma'noni bildiradi. Tang sulolasidan boshlab, ya'ni VII asrdan boshlab davlat imtihonlari orqali lavozimga ega bo'lish uchun barcha tabaqadagi, o'zlarini amaldor bo'lishga loyiq deb hisoblagan yosh yigitlar qatnashish huquqiga ega bo'lganlar. "Keju" Xitoyda XXasr boshida bekor qilingan.

²⁵ Dots.M.X.Mahmudho'jayev., dots. J.T.Ziyamuhamedov., Pu Sungling. Lyao Jay rivoyatlari. 1-qism.T, B.4.

Lyao Jay asarlarida fantastika yovuzlikni erkinroq , dalilroq tanqid qilish uchun ishlatilgan. Lyao Jay fikri bo'yicha g'ayrioddiy ishlarni faqat sexrgar rohiblar emas, balki adolatli va haqiqatgo'y, irodali va g'ayratli bo'lgan oddiy odamlar ham bajarishi mumkin bo'lgan.

Pu Sunglingning hayoti va ijodi haqida dots. Ziyamuhamedov J.T o'zining monografiyalarida juda ko'plab ma'lumotlar keltirgan . Masalan, “ Xitoy novellistikasi va Pu Sungling asarlarining o'rganilishi” nomli maqolalarida , “ Lyao Jay rivoyatlari (Xitoy adabiyotidan xrestomatiya)” nomli asarlarida Pu Sunglingning hayoti, ijodi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan .

Dots. Ziyamuhamedov J. ning “O'rta asr Xitoy novellalari” nomli to'plami Pu Sunglingning hayoti va ijodini to'liq yoritib bergan.Ushbu kitobda xitoy mumtoz adabiyotida novellaning tutgan o'rni va uning o'rganilishi , jahonning turli tillariga tarjimalari , Pu Sungling novellalari ustida olib borilgan tadqiqotlar hususida ma'lumotlar berilgan . Pu Sungling hayoti va ijodi bilan o'zbek yozuvchilarini tanishtirishdan boshlanib, adib novellalarining mavzular ko'lamini , g'oyaviy xususiyatlari va syujet tizimi tadqiq etiladi. Shu bilan bir qatorda “ Lyao Jayning g'aroyib hikoyalari” to'plamining tarkibiy tuzilishi borasida so'z borib , bu novellalarning manbalari to'g'risida fikr yuritiladi. Xitoy o'rta asr novellasining tadrijiy taraqqiyotida Pu Sungling ijodining tutgan o'rni va Sung davrida (960-1279) novella janri rivojining o'ziga hos xususiyatlari o'rganilgan.

Yana shuni qayd etish lozimki , ushbu monografiya o'zbek xitoyshunosligida o'rta va yangi asrlar boshi Xitoy sehrli novellalari tahlili natijasida hosil bo'lgan ilmiy qarashlar asosida yaratildi. U o'zbek o'quvchilarini ulug' xitoy yozuvchisi Pu Sungling bilan tanishtirishga hizmat qiladi.

Bundan tashqari dots. Ziyamuhamedov J.T. ning nomzodlik dissertatsiyalari ham aynan Pu Sunglingning ijodi haqida bo'lgan. Nomzodlik dissertatsiyaning mavzusi: “Pu Sunglingning sehrli novellalari (syujetning kelib chiqishi va rivojlanishi)” bo'lgan.

Yana dots. Ziyamuhamedov J.T ning ko'plab ilmiy ishlarini misol qilishimiz mumkin:

-Xitoyning buyuk hikoyanavisi Pu Sungling . (Novellalar tarjimasi) .// Sharq yulduzi . 2004 yil. Birinchi fasl. 113-120 betlar

-O'zbekistonda "Lyao Jay"ning o'rganilishi .//Lanjou oqshomi XXR , Lanjou. 2004. 8281-son. 12-bet. (xitoy tilida)

- Pu Sungling novellalarining manbalari : O'rta asr xitoy novellasining shakllanishi va Pu Sungling ijodi. (ilmiy ocherklar to'plami) . T.D.SH.I 2011. 63-91 betlar

- Liao Zhai (Pu Sungling) novellalari .// (Xitoy adabiyoti bo'yicha hrestomatiya) T.; Muharrir, 2012. (Hammuallif : Z.Shamshiyeva) 106-bet va boshqa shu kabi ilmiy ishlarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

1.1 Lyao Jayning xitoy adabiyotida tutgan o'rne

Xitoy adabiyoti o'ziga xosligi, janrlar xilma- xilligi va mazmunan boyligi , serqirraligi bilan o'zbek kitobxonini qiziqtirib kelgan. Xitoy adabiyotining durdonalari ichida novella, xususan, sehrli novellalar adabiyotshunoslar e'tiborini tortayotgani bejiz emas. Ildizlari xalq og'zaki ijodiga borib taqaladigan novella janri xitoy badiiy nasri tarixida alohida o'rin tutadi. O'zining asl sifatlarini deyarli o'zgarishsiz saqlab qolgan janr ham novelladir. Bu janr xalq og'zaki ijodidagi masal-novelladan hamda hikoya novellalardan, tang(唐) novellasi va sung davri xalq qissa – novellalaridan psixologik novellaga qadar o'sib rivojlandi , takomillashdi.

Xitoy adabiyoti tarixida novella janrini yuksak takomilga olib chiqqan va keyingi rivojlanish yo'lini belgilab bergan yozuvchilardan biri **Pu Sungling(蒲松龄) (1640-1715)** dir . U Lyao Jay (聊) tahallusi bilan ijod qilgan .

Bundan uch asr muqaddam u “ Lyao Jayning g'aroyibotlar haqidagi hikoyalar” asarini yaratdi. Pu Sungling 500 ga yaqin novella yozgan , degan ma'lumotlar ham mavjud.²⁶ Lekin uning bir qism novellalari bizgacha yetib kelmagan . Adib umr bo'yi g'ayrioddiy hodisalar va sehrli narsalar haqidagi hikoyalarni , shuningdek, xalq latifalarini yig'gan .

Hech bir tarixiy asar o'tmish manzarasini badiiy adabiyot singari batafsil aks ettira olmaydi. Shu ma'noda Pu Sungling asarlarini xitoy xalqlari hayotining in'ikosi , madaniy merosining ajralmas qismi , xitoy jamiyatidagi turli tabaqalar hayoti va o'ziga hosliklari haqida fikr yuritishga imkon beruvchi ma'lumotlar manbaidir .²⁷

Ba'zan bu – xalq ertak va afsonalarning qayta ishlangani , ba'zida masal yoki latifa , ayrim hollarda esa qadimgi hikoya yoki novellaning

²⁶ 中国文化 . 北京 , 2004 年 1 月 . - 189

²⁷ Dots.J.T.Ziyamuhamedov., Liao Zhai (Pu Sungling) novellalari .// (Xitoy adabiyoti bo'yicha hrestomatiya) T., Muharrir, 2012.- (Hammuallif : Z.Shamshiyeva) B.4.

mohiyatini anglatadigan iboradir.²⁸ Shu hususiyatlari uchun adabiyotshunoslikda Pu Sungling novellalarini tadqiq etish katta ahamiyat kasb etadi.

Novella janrining badiiy hususiyatlari ko'pdan beri tadqiqotchilar e'tiborini tortish bilan bir qatorda, jiddiy filologik tadqiqotlar mavzusi ham bo'lmoqda. Bu avvalo, xitoy adabiyoti tarixida ushbu janrning keng tarqalgani bilan bog'liq.

Pu Sungling novellalari fantastik va kutilmagan personajlar: qiyofasini o'zgartiruvchi tulkilar, sehrGAR rohiblar, samoviy va hayoliy sharpalardan iborat bo'lib, voqealarda parranda va darrandalar, gazanda va hasharotlar, asalari va chumoli singari jonivorlar hamda turli hildagi o'simliklar dunyosi vakillari ham ishtirok etadi. Afsonaviy, samoviy qahramonlar va narigi dunyodan kelganlar qatoriga savdogarlar, ma'murlar, dehqonlar, hukmdorlar, bosqinchilar, sohibjamol honimlar singari zamin ahli ham osongina qo'shilib ketaveradilar.²⁹

Xitoyda novella turidagi kichik epik janrlar yozma adabiyot va xalq og'zaki ijodining III- XIX asrlardagi doimiy o'zaro aloqalari asosida rivojlanib keldi.

VIII-XIV asrlar xitoy novellalari mavzu doirasi va g'oyasi jihatidan Uyg'onish davri Yevropa xalqlari adabiyotidagi novellalardan sezilarli ravishda farqlanadi. Shu bois, Pu Sungling novellalariga nisbatan "yuksak realistik" ta'rifini qo'llab bo'lmaydi. Ularni "fantastik" deb nomlash ham qiyin. Nazarimda, ularga "sehrli" ta'rifi ko'proq mos keladi. Zero, Pu Sungling to'plamlari nomidan kelib chiqib, uning asarlari sehrli ertaklar va III- VI asrlar mifologik manbalari bilan hamnafas, deya hukm chiqarish mumkin.

²⁸ Лисевич И. С. Литературная мысль Китая.- М.: Наука, 1979.-С. 195

²⁹ J.T. Ziyamuhamedov . Liao Zhai (Pu Sungling) novellalari .// (Xitoy adabiyoti bo'yicha hrestomatiya) T.; Muharrir, 2012.- (Hammuallif : Z.Shamshiyeva) .B.5.

Novellalardagi folklor motivlari etnografik materialning badiiy tizimga aylanish jarayonini ko'rsatadi. Bu jarayon sehrigar xotin haqidagi motiv evolyutsiyasida va hatto, Pu Sungling ijodida ham, asta sekinlik bilan bo'lsa-da, XIV – XX asrlar novellalarining ishqiy sirlariga aylanishida, ayniqsa, yorqin namoyon bo'lgan. Pu Sungling novellalarining o'ziga hosligi shundaki, ular novellaning boshlang'ich genetik aloqadorlik alomatlarini hamisha saqlab kelgan. Pu Sungling qadimgi folklor motivlarini tadrijiy taraqqiy ettira oldi, o'zgartirishga muvaffaq bo'ldi hamda novella an'anasining rivojlanish jarayonini boshlab berdi. Bu jarayon folklor materialining detallarni qayta idrok etish, folklor yuklagan vazifalar va formula kabi takrorlarni bartaraf etish yo'li bilan yuksak adabiyotga xos badiiylilik baxsh etib, asta-sekin yozma bayonga aylantirishdan iborat edi.³⁰

Pu Sunglinggacha g'ayrioddiy narsalar haqida novella yaratuvchilarni har biri alohida holat, har biri alohida hodisa mustaqil holda qiziqtirgan bo'lsa, Pu Sungling XVII asr ohiri va XVIII asr boshlari xitoy jamiyati turli qatlamlari hayotining yaxlit umumlashma manzarasini yaratadi.

Pu Sungling ijodi turli yo'nalishlarda va har tomonlama mufassal o'rganilmog'i lozim. Ayrim sohalardagi dastlabki kuzatishlarning o'ziyoq uning o'ziga hos va original ijodkor ekanligini tasdiqlaydi. U o'zidan oldingi novellanavistlar tajribasidan ijodiy foydalanib, janrning badiiy imkoniyatlarini kengaytirdi va rivojlanishning yangi sifat bosqichiga ko'tardi. Chegara bilmas hayolot olami, fikr teranligi, nozik uslub singari o'ziga hosliklar Pu Sungling ijodiga uzoq vaqtlardan beri mutaxassislarning, shu bilan birga keng kitobxonlar e'tiborini ham jalb qilib kelmoqda.

Turmush tarzi va urf – odatlarning keng qamrovli tasviri jihatidan Pu Sungling bilan yonma-yon qo'yishga loyiq birorta zamondosh yoki ungacha o'tgan yozuvchini topish amri maholdir. Shu sababli, o'zbek

³⁰ J.T. Ziyamuhamedov . Liao Zhai (Pu Sungling) novellalari .// (Xitoy adabiyoti bo'yicha hrestomatiya) T.; Muharrir, 2012.- (Hammuallif : Z.Shamshiyeva) .B.6.

kitobxoni uchun xitoy adibi asarlari bilan tanishish yuksak estetik zavq bag'ishlaydi.

E'tibor berilsa , Pu Sungling ijod qila boshlagan yillarda mamlakatdagi vaziyat o'ta keskinlashib ketganligi ko'zga tashlanadi. Shafqatsiz senzura joriy qilindi , chop etilgan kitoblar tekshiruvdan o'tkazildi. Ularning ko'pi qayta ishlandi. Kitoblarning bir qismi ta'qiqlandi . 1774 yildan 1782 yilgacha bo'lgan davr ichida Xitoyda o'ttiz ming nomdan ortiq kitobning kulini ko'kka sovurgan 24 gulhan tashkil etildi.³¹ Ta'qiqlangan kitoblar orasida "Uch hokimiyatchilik", "Qizil ko'shkda tush" , "G'arbga sayohat", "Daryo o'zanlari" va boshqalar bor edi.

Shunday bir paytda nasr soxasida "Zamonaviy va qadimgi g'aroyib qissalar" ga o'xshagan yirik adabiy yodgorliklar paydo bo'ldi. Xitoy adabiyotida novella janri Pu Sunglingning "Lyao Jayning g'aroyib hikoyalari"ning dunyoga kelishi bilan o'z takomilini topdi.

Lyao Jayning bizgacha yetib kelgani 431 ta deb hisoblanadigan novellalarning ko'pchiligidagi hajv o'z zamonasiga , ayniqsa , manjur ma'murlarining qo'pol o'zboshimchiliklariga qarshi qaratilgani shubhasizdir. Lyao Jay ijodining ayni shu jihati hususida xitoy adabiy tanqidchiligida yakdil fikr bildiriladi.

Lyao Jay voqealar talqinida , o'quvchini kishining ijtimoiy kelib chiqishi uning kelajagiga ya'ni taqdiriga ta'sir qiladi va uning kelakda qanday inson bo'lishini belgilaydi, degan fikrga olib keladi. O'sha paytdagi sulola hukronligi davrida ijtimoiy adolatsizlik asosiy kuch ekanini ko'rsatadi. Bunday jamiyatda ayrimlarga hokimiyat va boylik, boshqa birovlariga esa qashshoqlik va huquqsizlik berilgan . Avvalgilar o'z mavqelarini saqlab qolish va mustahkamlashga intilsalar , boshqalar esa qashshoqlikda kechirayotgan hayotlarini yaxshilashga harakat qilardilar.

³¹ J.T. Ziyamuhamedov. O'rta asr xitoy novellalari .- Toshkent, 2010.- B.22.

Lyao Jay o'z novellalarining g'oyaviy mazmuniga befarq qaramas edi. U o'z asarlarida folklor ya'ni xalq og'zaki syujetlaridan foydalanib, novellalar mazmunining aniq bo'lishiga harakat qilar edi.

1.2 Lyao Jay asarlarining tarjimalari.

XXR buyuk davlat sifatida globallashuv jarayonlariga bevosita ta'sir o'tkazayotgan subyekt davlatlardan bo'lib qolayotganligi turli soxa vakillari nafaqat siyosatshunos, faylasuf, jamiyatshunos – tilshunos qolaversa adabiyotshunos olimlarning diqqat markazida bo'lib qolayotganligi ilm ahli uchun yaxshi ma'lum.

Xitoy adabiyoti uch ming yilga yaqin tarixga ega bo'lib, o'zining uzoq mashaqqatli hamda sharaflil rivojlanish jarayonida yuzlab turli janrdagi san'at asarlarini yaratgan, adabiyot namoyondalarini shakllantirib, xitoy va jahon xalqlariga taqdim qilgan. Shunday ijodkorlardan biri hikoyanavis yozuvchi Pu Sunglingdir. Uning asarlari xalq orasida folklor sifatida tarqalgan afsona, shuningdek, rivoyatlarga asoslangan.

Pu Sungling ijodini bevosita o'rganishga kirishar ekanmiz, albatta tarixiy ma'lumotlarga murojaat qilishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Pu Sungling ijod qila boshlagan yillarda mamlakatda vaziyat o'ta keskinlashib ketganligi ko'zga tashlanadi. Shavqatsiz senzura qilinadi, chop etilgan kitoblar tekshiruvdan o'tkaziladi va ularning ko'pchiligi qayta ishlanadi. Kitoblarning ko'p qismi ta'qiqlanadi.

Shunday bir murakkab davrda badiiy nasr sohasida "Zamonaviy va qadimgi g'aroyib qissalar"ga o'xshagan yirik adabiy yodgorliklar paydo bo'la boshladi. Xitoy adabiyotida novella janri Pu Sunglingning "Lyao Jayning g'aroyib hikoyalari"ning dunyoga kelishi bilan o'z takomilini topdi.³²

Lyao jayning bizgacha yetib kelgani 431 ta deb hisoblanadigan novellalarning ko'pchiligidagi hajv o'z zamonasiga, ayniqsa, manjur ma'murlarining qo'pol o'zboshimchaliklariga qarshi qaratilgan.

³² J.Ziyamuhamedov. O'rta asr novellalari.-T,2010.- B.23.

Lyao Jay ijodining ayni shu jihati xususida Xitoy adabiy tanqidchiligida yakdil fikr bildiriladi.

Xitoy olimi Yan Jenhai 1962 yili muallif dastini topgani va “Ching-keting” kitob do`koni nashrlaridagiga qaraganda 70 ta hikoya ko`p bo`lgan “Lyao Jay jeyi” uch tomligini sharh va izohlar bilan nashr etganidan so`ng “Ching-keting” kitob do`konining 1766 yil nashri va muallif qo`lyozmasidagi bir qator novellalarning asl matnini tiklash ustida ish olib bordi.

To`plamning ikki qatlamini birinchi bo`lib o`zaro qiyoslagan Yan Zhenay kitobning ehtiyotsizligi tufayli tasodifiy tushib qolgan bo`lishi mumkin bo`lgan alohida so`z yoki jumlar or`tasida ikki tafovutga e`tiborimizni qaratishimiz mumkin. Uningcha, atayin (senzura natijasida) olib qolinganda ham 23 iyeroglifni tashlab ketish “Yashil libos kiygan qiz” hikoyasining umumiy mazmuniga putur yetkazmagan.

“Van Chen” qissasida ikkitagina (hatto bitta) “almashmoq” iyeroglifi omonimlik yordamchi yuklama bilan almashtirilgani tufayli, Ma so`zining ma`nosi “tashqi qiyofa yordamida qanday qilib foyda olish mumkin?” shaklida o`zgaradi.

Qissaning birinchi qismida xitoylar orasidan chiqqan munofiqlar haqida hikoya qilinadi: “Ular turini o`zgartirib, bosqinchilarga xizmat qila boshladilar, ularning kiyim-kechagi, urf-odatlarini va hattoki soch turmaklashlarini ham qabul qildilar”. Mazkur qissada sensorlar ikki iyeroglifni almashtirish bilan jumla mazmunini mo``tadillashtirishga erishganlar.

To`plamdagi bir qator hikoyalar, ularda davlat arboblari jazmanlarining nomlari tilga olingani yoki xitoy xalqining qahramona kurashi voqealari shama, imo-ishora tarzida bo`lsada aks ettirilgani uchun umuman chiqarib tashlangan.

Bosqinchilarning vaxshiyliklari ixcham, ammo yaqqol ko`rsatib berilgan “Xabarchi shaytonlar”, “Kichik tobutlar”, “Jan oilasiga mansub ayol”,

“G`alayonlar paytidagi ayriliq” va boshqa hikoyalar esa, to`plamdan umuman chiqarib tashlangan edi.

Shuni aytish lozimki, manjurlarga qarshi kayfiyat senzura o`tkazmagan hikoyalardagina emas, ma`qullaganlarining ko`pchiligida ham mavjud bo`lib, ulardagi maxfiy ma`noni senzorlar ko`zdan qochirgan yoki yushina olmaganlar. Bu albatta Pu Sunglingning yuksak mahorat bilan qo`llagan, qo`shimcha izohlar talab etadigan “kosa tagidagi nim kosa” tarzidagi “Ezop tili”ning sharofati edi. Ayni shu o`rinda “Hayvon o`rgatuvchi Ma Jefu” hikoyasidagi “Boshga ayollar romolini o`rash” jumlası e`tiborga sazovordir. Rivoyatlarga qaraganda mashxur sarkarda Ju Ge Lyang (III asr) bir kuni dushman bilan urushda qanday qilib bo`lsa-da, raqibni yakkama-yakka urushga tortmoqchi bo`libdi. Biroq dushman chap beraveribdi. Shunda, Ju Ge Lyang uning erkak kishiga xos bo`lmagan qo`rqoqligini ta`kidlash uchun dushmaniga ayollar kiyimini yuboribdi.

Umuman olganda Pusungling ijodida senzurlarga mutlaqo ma`qul tushmaydigan jihatlar ko`pchilikni tashkil qilgan.

Pu Sungling hayot chog`idayoq, mamlakat bo`ylab xalq g`alayonlari to`lqini bo`lishga muvaffaq bo`lgan.

Pu Sungling qo`zg`alonchilarga hamdard bo`lishdan, ularning qahramonliklaridan zavqlanishdan chetda tura olmasdi. Adib bu qo`zg`alonlarning bostirilishidagi manjur hukmdorlarining shavqatsizligini mahorat bilan tasvirleydi. Uning novellalarida ayol kishi manjur askarini o`ldiradi, asr tushib qolgach sharmandalikdan ko`ra o`zini-o`zi oldirishni afzal ko`radi. (“Jan oilasiga mansub ayol”).

Adib o`z asarlarida davlatga qarshi chiqqanlarni qoralaydi. Masalan, “Uch sulolaning buyuk piti”, “General She”, “Erkak kishi farzand ko`rdi” asarlarida Min xonadonidan chiqqan, dushman tomonga o`tgan xoinlarni ayblaydi va h.k.³³

³³ Dots.M.X.Mahmudxo`jayev ., dots.J.T.Ziyamuhamedov., Pu Sungling. Lyao Jay rivoyatlari. -Toshkent,2003.- B.27. (Shu manbadan olingan keyingi iqtiboslar “o`sha manbaa” sifatida ko`rsatiladi)

“Lyao Jayning g`aroyib hikoyalari”ni o`rganuvchi olimlar bu novellalarni muayyan turkumlarga ajratadilar. Jumladan, V.Eberxardt syujetlarni buddizm tanqidi; ma`murlar tabaqasi tanqidi; imtihonlar tizimi tanqidi; adliya organlari tanqidi; manjur (shu jumladan, xitoy) oqsuyaklari tanqidi singari turkumlarga ajratadi.³⁴

Xitoy tadqiqotchilari esa mazkur novellalar to`plamining mavzusini muhabbat haqidagi; hukmron sinf hajvi; ma`murlar tanqidi; imtihonlar tizimi tanqidi va manjurlarga qarshi kayfiyatni ochib beruvchi novellalar singari besh turkumga ajratib tasnif qiladilar.³⁵

Xitoy tadqiqotchilarining bergan tasniflari dots. M.X. Mahmudxo`jayev hamda f.f.n.dots. J.T.Ziyamuhamedovlar tomonidan tarjima qilingan “Lyao Jayning rivoyatlari” to`plamida o`z aksini topgan guvohi bo`lamiz.³⁶

Barcha tadqiqotchilarning fikricha, to`plam takrorlanish tamoyili asosiy tashkil etuvchi “qonun” hisoblanadigan “bitsi”ning klassik qonunlari asosida tuzilgan.

Bu tamoyil esa, bir tomondan, syujetlarning turli to`plamlarda takrorlanishi, ikkinchi tomondan to`plam ichida takrorlanishi yo`li bilan amalga oshiriladi.

Birinchi holatda Pu Sunglingning “Nilufar malikasi” novellasini Li Gunszyuning mahshur tai novellasi “Hukmdor Nanke” bilan qiyoslash mumkin. Ikkala novellaning qahramoni ham tushida afsonaviy mamlakatga tushib qoladi va u yerning hukmdori unga o` qizini beradi. Har ikkala hikoyada ham qahramonlar uyg`ongach, hashoratlar (biri chumolilar, ikkinchisi asalarilar) mamlakatida bo`lganlarini bilib qoladilar. Novellalar yakunini qiyoslash ham o`ziga xos xususiyatlarga olib keladi. Jumladan, tai novellasida qahramon

³⁴ O`sha manbaa. B-29.

³⁵ O`sha manbaa.B-32.

³⁶ Qarang. M.X. Mahmudxo`jayev hamda f.f.n.dots. J.T.Ziyamuhamedov. “Liao Jay rivoyatlari”. 1-2-qism. Toshkent, 2003.

uygʻonib, chumoli uyasini buzib tashlasa, Pu Sungling qahramoni, aksincha, tabiatga madadkor, u ulkan bʻgʻma ilonni oʻldirib, arilarga uya yasaydi.

Bizning nazarimizda Pu Sunglingning qahramonini ulkan boʻgʻma ilonning oʻldirgani, yovga qarshi qalqon boʻlgan, asalarilarga in qurganini esa, xalqiga millatiga xizmat qiluvchi qahramon sifatida ham koʻrish mumkin deb oʻylaymiz.

Asosiy, mavzular va syujet koʻrinishlarining bir toʻplam doirasida takrorlanishi “gʻaroyib hikoyalar”ni tadqiq qilgan barcha mutaxassislarining, shu jumladan, V.M.Alekseevning syujetlarini turkumlarga ajtarishlariga asos boʻldi. U oʻzining soʻz boshisida “Men novellalar tanlashning bunday tamoyiliga amal qilgan holda Lyao Jayning mukammal novellalat toʻplamini alohida mustaqil toʻplamlar holida, jumladan “Tulki togʻlari”. “Sehirgar rohiblar”, “Folbin-jodugarlar”, “Ruh-xudolar”, “Marhumlar qozisi”, “Hayvonlar va odamlar”, “Osmon ahli”, “Bashoratli tuhslar” degan nomlar bilan nashr ettirmoqchi boʻldim”, - deb yozadi.³⁷

Oʻz navbatida, Pu Sungling ijodini oʻrganishda buyuk rus xitoyshunosi V.M.Alekseevning (1881-1951) nomini alohida taʼkidlash lozim. U 150 ga yaqin novellani tarjima qilgan va batafsil izohlar bilan chop ettirgan. U Pu Sunglingning “Tulki afsunlari” (1922), “Sehrgar rohiblar” (1923), “Gʻayritabiiy hikoyalar” (1928) va gʻalati odamlar haqida hikoyalar” (1937) nomli toʻrt hikoyalar toʻplamini eʼlon qildi. Bu kitoblar 50-yillarda qayta nashr etildi.

Bu vaqtga kelib Pu Sungling hikoyalari bir qator gʻarb tillariga, jumladan, ingliz va nemis tillariga tarjima qilindi. Mashxur xitoyshunos G.Jayles amalga oshirgan inglizcha tarjima esa Gʻarbda qariyb klassik asar sifatida qabul qilinar edi. Xitoyshunos olimlarning fikricha, V.M.Alekseev tomonidan amalga oshirilgan ishlar chuqur ahamiyat kasb etadi. Zero , uning tarjimalari

³⁷ J.Ziyamuhammedov. Oʻrta asr novellalari. - Toshkent, 2010.- B.30.

G.Jaylesning yarim havaskorona tarjimalari oldida asliyat ruhini anchagina aks ettiradi.³⁸

Italyan yozuvchisi De Guara ham Pu Sungling asarlarini italyan tiliga tarjima qiladi. U Pu Sungling asarlariga yuqori baho berib, ularni Xitoyning buyuk asari deb baholaydi.³⁹

Pu Sungling ijodi va uning novellalari tarjimasi masalalariga munosabatini V.M.Alekseev “Qadimiy Xitoy adabiyotini demokratiyalashtirishga oid” va “Pu Sungling (Lyao Jay) novellalarida konfutsian shaxsi va mandarin mafkurasi fojeasi” deb nomlangan asarida bayon etgan.

Keying paytlarda yuzaga kelgan oxirgi tarjimalardan “Ehson uchun ajr haqidagi byanven”(L.N.Menshikov tarjimasi), “Shen Fu qissasi” (K.I.Goligina tarjimasi), “Pu-min haqidagi qissa”(E.S.Stulova tarjimasida), “Pu Sungling hikoyalari”(N.M.Ustin kitobida) , “Alvon yashma” hikoyalar to’plami va boshqalarni qayd etish mumkin.⁴⁰

Pu Sungling asarlarida olti sulola davri hikoyalarida uchraydigan ifoda tarzini ko’p o’rinlarda uchratish mumkin. Misol tariqasida Lyao Jayning “雨 钱” (“Osmondan tushgan pullar”) ⁴¹ hikoyasining bayon tarzini ko’rsatishimiz mumkin. Unda huddi qadimgi davr to’plamlaridagi singari ruhlar va iblislar go’yo moddiy dunyoning mavjudotlaridek harakat qiladilar,inson ularga duch kelib qolganida, o’zini bamisoli kundalik oddiy bir narsani ko’rib turgandek, erkin tutadi.

Pu Sungling shuningdek, bu rivoyatda hatto ilimli kishilar orasida ham o’z nafsining ortidan jinoyatga qo’l urishi mumkin bo’lgan shaxslar mavjudligini va ularni tanqid qilishini bayon etadi. Hikoyada keltilgan jummalarni misol tariqasida keltirsak: “....Seni qidirib kelishimning sababi, sen bilan birorta

³⁸ Фишман О.Л. Три китайских новеллиста.-М.,1980 ва Н.Т.Федоренконинг «Лисьи чары»тупламига сунгги сузи,-М.: «Наука», 1955.-Б.277-282.

³⁹ O’sha manbaa. B.8.

⁴⁰ Dots.J.T.Ziyamuhamedov., O’rta asr xitoy novellalari.- Toshkent, 2010.-B.9.

⁴¹ O’sha manbaa. B.7-9.

jinoyatga qo`l urish emas, balki, fan va ba`zi ijodlar ustida izlanish va fikrlashish edi. Sen esa, meni o`zingni yomon niyatlaringni amalga oshirish uchun gunohga chorlading....”⁴²

Endi Pu Sunglingning sevgi mavzusidagi novellalari haqida to`xtalamiz – ular ichida odamlar o`rtasidagi sevgiga bag`ishlangan hikoyalari 20 ga yetar yetmas bo`lsada, insonning sehrigar tulki yoki o`lgan qiz ruhi bilan yaqinligi mavzusida yozilganlari ko`p uchraydi. Masalan: A Shyu va Lyu Zigu o`rtasidagi muhabbat “Tulki ruh” qizning ularga har doim qilgan yaxshiligi evaziga baxtli hayotga erishganlarini aytish mumkin.⁴³

Bundan tashqari ijodkor olijanob qaroqchilar haqida va boshqa turli mavzulardagi rivoyatlari bilan ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurashadi.

Zero, bu jamiyatda ayrimlarga hokimiyat va boylik, boshqalarga esa huquqsizlik va qashshoqlik berilgan. Birinchi toifadagi shaxslar o`z mavqeini saqlab qolishga intilsa, ikkinchisi esa, ahvolini yaxshilashga harakat qiladi.

⁴² O`sha manbaa. B.9.

⁴³ O`sha manbaa. B.104-110.

I bob bo'yicha xulosa

1. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekistonlik yoshlar xitoy adabiyotiga qiziquvchilar va umuman barcha tadqiqotchilar uchun xitoy adabiyotini o'qish , o'rganish, tahlil qilish va eng asosiysi xitoy adabiyoti durdonalaridan ulkan zavq va bahra olish imkoni yetarlicha .Faqatgina ilm sohasini mahkam tutgan , xitoy adabiyotini sevgan insonlar bo'lsa bas. Shunday ekan , to'la ishonch bilan aytishimiz mumkinki , bugun O'zbekistonda xitoy adabiyotini o'rganish bo'yicha o'ziga hos ishlar olib borilgan .

2. Lyao Jay novellalarining syujet tizimi , kompozitsiyasini o'rganish jarayonida quyidagi muhim xulosalar kelib chiqadi:

-Lyao Jay XVII asr va XVIII asr boshlari xitoy adabiyotining ulkan namoyandasidir. Uning turli janrlarda yaratilgan boy ijodiy merosi o'rta asr xitoy adabiyotining yuksalishiga ulkan hissa bo'lib qo'shilgan .

Lyao Jay novellalarining syujeti , tuzilishi va g'oyasi XVII-XVIII asr xitoy adabiyotida yangilik bo'ldi. Lyao Jayning Xitoyning bosqinchi manjur – Ching monarxiyasi davridagi shafqatsiz senzura sharoitida yaratilgan asarlari ushbu davr xitoy xalqi xayotining haqqoniy manzarasini yaratishga hizmat qiladi;

-Lyao Jayning ijodi haqidagi ma'lumotlarning kamligi ham aslida uning asarlari senzura ma'qul bo'lmagani va u haqda “indamaslik” siyosati yurgizilganining belgisidir;

-Lyao Jay asarlarida ijodkorning yashirin “men”i muayyan darajada aks etib turadi. Uning hukmron sulolaga qarshi munosabati , ayniqsa, xitoy xalqining bosqinchilarga qarshi kurashi , amaldorlarning sotqinliklari tasvirlangan asarlari “g'azabi qaynagan vatanparvarning ovozi” sifatida yangraydi;

-Lyao Jay novellalari asosan jamiyat illatlarini tanqid qiladi.

-Lyao Jay novellalarining o'ziga hosliklaridan biri an'anaviy syujetlar talqinidagi muallif hotimalarida namoyon bo'ladi. Ushbu hotimalarda muallifning o'z ovozi yangraydi. Ularni adabiy bilimi yetarli kitobhongina tushunadi. Bu ovoz qo'shimcha hikoya, yangi novellada o'z ifodasini topadi. Muallifning ijodiy mahorati ushbu hotimalarda yanada yorqin aks etadi.

3. Pu Sungling asarlarida o'zi yashab ijod qilgan davr siyosiy ijtimoiy ahvolini yorqin chizgilar va o'ziga xos bayonlar bilan ifoda eta olishga erishdi. U xitoy adabiyotida ilqtiboslardan foydalanishning o'ziga xos uslublarini yaratdi va ulardan o'z o'rnida foydalanishda o'zidan oldingi yozuvchi hamkasblardan o'zib ketdi. Yozgan novellalarida xitoy xalqi hayotini, manjur hukmdorlarining shavqatsizlarcha zulm ostida ezilishini badiiy tasvirlar orqali ifodalashda o'ziga xos, ya'ni hayvonlar, g'aroyibotlarni faol ishtirokidan foydalanishda o'ziga xos uslub yaratdi.

II BOB. TARJIMADA TARIXIY MILLIY MUHITNI QAYTA YARATISH

2.1. Tarixiy soʻzlar tarjimasida milliy kolorit

Avvalambor, “ Kolorit” terminining kelib chiqishi xaqida tilshunos olimlar fikrlarini koʻrib chiqamiz. Xar doim xam olimlar fikrlari bir biriga mutanosib kelavermaydi. Xususan Gʻ. Salomovning “ Tarjima nazariyasi asoslari”⁴⁴ kitobida kolorit termini xaqida turlicha muloxazalar taqdim etilgan. Unga koʻra O. Usmonov va R. Doniyorovlar talqinida kolorit terminini boʻyoq, rang , maʼnosini anglatib lotincha color , italiyancha colorito soʻzi orqali rus tiliga, u tildan bevosita oʻzbek tiliga kirib kelgan. Tilshunos olima O.S. Axmanova esa bu inglizcha color(ing) soʻzidan olingan degan maʼlumotni bergan. Shuningdek Gʻ. Salomov ushbu terminni nafaqat tilshunoslik, tarjimashunoslik va adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan oʻrgangan, balki ushbu terminning sanʼat, musiqa va shu qatorda rassomchilikka ham xosligini ochib bergan.

Maʼlumki, badiiy tarjimachilikda milliy kolorit tushunchasi bizga begona, nomaʼlum boʻlgan xalq, elat hayot tarzi, urf- odatlari , umuman olganda, milliyliigi tushuniladi. Ushbu tadqiqotda “Lyao Jay rivoyatlari” asarida keng ifodasini topgan barcha bizga yot boʻlgan, xitoy xalqining xayot tarziga tegishli marosimlar, yeguliklar, kiyim-kechak va boshqalarning oʻzbekcha tarjimada berilishi oʻrganiladi.

“Xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan tushunchalar xos soʻzlar deyiladi.

Muayyan bir xalq, millat va elatga xos tushuncha, narsa va xodisalarni aks ettiradigan soʻzlar badiiy asarning milliy xususiyatini belgilaydigan asosiy vositalardan xisoblanadi. Asarning milliy xususiyati asosan leksik va frazeologik birliklar yordamida yaratiladi”⁴⁵

⁴⁴ Gʻ. Salomov. Tarjima nazariyasi asoslari.- T, 1983.-B.98.

⁴⁵ Q. Musayev. Tarjima nazariyasi asoslari.-T,2005.-B.89.

“ Lyao Jay rivoyatlari “ (“ Pu Sungling”) asarining qiyosiy taxlili jaroyonida, asar tarjimasida milliy koloritga oid soʻzlarni transliteratsiya va muqobil variant bilan oʻgirilganligining shohidi boʻldik. Ushbu jarayonda baʼzi bir tushunchalarning xalqimiz tiliga singib ketganligi sababli ularga izohning hojati yoʻqligiga amin boʻldik. Shuningdek, baʼzi bir tushunchalar izohli tarjima bilan keltirilgan, baʼzilari esa matn osti havolasida tushuntirib ketilgan. Ammo baʼzi bir tushunchalar izohsiz qolganligi sababli oʻzbek kitobxoniga tushunarsiz boʻlib qolgan deb xisoblaymiz.

Tarjima tilida goho asliyatdagi til vositalari maʼnolariga maʼlum darajada yaqinroq mazmunli birliklar uchrasa-da, ular oʻzlarining shartli muqobillaridan yo xislat-hususiyat yoki shakl- hajm-miqdor jihatlaridan farqlanadilar va bu tafovut ularning tarjimada oʻzaro almashinuviga yoʻl qoʻymaydi. Masalan, asliyat mansub boʻlgan xalqqa hos pul hamda masofa-uzunlik birliklari, roʻzgʻor ashyolari, kiyim – kechak, yegulik – ichkilik kabi koʻpgina tushunchalarni bildiruvchi soʻzlarni transliteratsiya yoʻli bilan talqin etish asarda aks etgan oʻziga hos muhit va sharoitning kitobxon koʻz oldida ochiq oydin jonlanishni taʼminlaydi.

Milliy xos soʻzlarning transliteratsiya yoʻli bilan tarjimada berilishining asosiy sababi – asliyatda qoʻllanilgan milliy xususiyatli til vositalarining tarjima tilida mavjud boʻlmaganligidir. Shu sababli ushbu asar tarjimasi davomida uchragan milliy koloritni aks ettiradigan milliy xos soʻzlar tahlil qilindi.

Har bir badiiy yodgorlik muayyan bir davrda sodir boʻlgan voqea-hodisalarni tasvirlaydi . Shunga koʻra , tarixiy mavzuda bitilgan asar hozirgi zamon kitobxonini xalq hayotining tarixi bilan tanishtiradi.

Asliyat yaratilgan davr tarjima amalga oshirilgan paytdan , odatda , maʼlum darajada farq qiladi. Shuning uchun ham asliyat ruhini toʻla toʻkis qayta yaratish masʼuliyati tarjimondan zarur til vositalarini toʻgʻri tanlash yoʻli bilan asliyat vujudga kelgan davr hususiyatini qayta yaratishni talab etadi. Shu bilan birga , tarjima amalga oshirilgan davr kitobxonga yaqin,

tushunarli bo'lishi lozim. Chunki tarjimon asarni o'z davri kitobxoni mutolaasi uchun o'giradi .

Bir so'z bilan aytganda , tarjimada shunday lisoniy vositalardan foydalanish kerakki , hosil bo'lgan matn kitobxonga yaxshi tushunarli bo'lsin va shu bilan birga , asarda tasvirlangan davr uning ko'z oldida jonlanib tursin⁴⁶. Pu Sunglingning **“Lyao Jay rivoyatlari”** asarida tadqiqot uchun maqsad va vazifa qilingan omillarning barchasi mavjud . Yuqorida Lyao Jayning hayoti, ijodi hamda xitoy adabiyotida tutgan o'rnini o'rgangan bo'lsak, ushbu bobda tarixiy so'zlar va frazeologizmga oid tushunchalar tahlilini amalga oshiramiz.

Tarixiy leksika ham milliy koloritning bir bo'g'imi , shu sababli ushbu bobda yozuvchi tasvirlagan davr ruhini tarjimada qayta yaralganda qay darajada saqlanib qolinganligini tahlil qilamiz . Tarixiy tushunchalarning tahlili juda murakkab va mashaqqatli ish bo'lib, bu yerda keskin xulosa chiqarib bo'lmaydi.

Misol tariqasida bir qancha jumlar tarjimasi tahlilini ko'rib chiqamiz.

Pul va o'lchov birliklari tarjimasiga tegishli bir necha misollar.

这很容易,但必须得要十几个钱作体钱.

(*zhe hen rongyi, dan bi xu de yao shi ji ge qian zuo ti qian*)

Tarjimasi:

Buning hech qiyin joyi yo'q, faqat o'n sardan ortiqroq pul dastmoyasi bo'lsa kifoya.

十几个钱 (*shi ji ge qian*) – Xitoyning qadimiy pul birligi .

Tarjimada ushbu pul birligi izohsiz qoldirilgan va bu noaniqlikni keltirib chiqargan .

Yana bir misol:

你能准备出十吊钱吗?

(*Ni neng zhunbei chu shi diao qian ma?*)

⁴⁶ Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari.- T.: FAN nashriyoti , 2005.-B. 111.

Tarjimasi:

Sen o'n dasta pul tayyorlab bera olasanmi?

十吊钱 (*shi diao qian*) – bu ham qadimda Xitoyda pul birligi hisoblangan , o'n dasta deb tarjima qilingan . Qadimda Xitoyda misdan ishlangan , o'rtasidan teshilgan barcha pullarni dastalab foydalanilgan⁴⁷.

Shu o'rinda bir narsani ta'kidlab o'tmoqchimiz, keling Xitoyda pulning yaratilish tarixiga birmuncha nazar tashlab o'tamiz.

Chjou davrida Xitoyda metal tangalari (dunyoda birinchi marta) muomalaga chiqarildi

Yer yuzidagi dastlabki qog'oz pullar Xitoyning Sun sulolasi davrida (960-1279) Chendu shaxrida chiqarila boshlangan . Dastlab ularni hajmi juda katta bo'lgan . Xitoy muzeylaridan birida 22,8 x 33 sm li pul birligi saqlanmoqda.

XX asrgacha Xitoy tangalari doira shaklida bo'lib , o'rtasida to'rtburchak teshik bor edi.

Yana bir narsa , pullar hamma vaqt ham qog'oz va metall tangalar ko'rinishida bo'lmagan . Insoniyat tarixida pul sifatida quyidagilardan ham foydalanilgan: oltin , kumush , turli mahsulotlar , hayvonlar va hatto odamlar . masalan, XX asrgacha Xitoyda pul sifatida tuz, ipak va plita shaklidagi choydan va shu kabilarga o'xshagan mahsulotlardan pul o'rnida foydalanishgan.

Endi o'zimizning misollarni ko'rib chiqamiz:

一年,湖南巡抚派洲佐押送 六十万两银子去京城.

(*Yi nian, hunan xunfu pai zhou zuo ya song liu shi wang liang yinzi qu jing cheng*)

Tarjimasi :

Bir yili Xunan provinsiyasining harbiy gubernatori o'zining muovinaridan birini **600 ming liyang kumush pul** orilgan karvonni markaziy hazinaga

⁴⁷ Dots. M.Mahmudxo'jayev., dots. J.Ziyamuhamedov. Lyao Jay rivoyatlari.-T, 1-kitob. B.32.

topshirish uchun qo'riqlab boradigan lashkarlarning boshlig'i qilib poytaxtga yubordi.

六十万两 (liu shi wan liang)- 600 ming lyang . Bir lyang 37.3 grammga teng.

XIX asr oxirlari XXasr boshlarida Xitoyning asosiy pul birligi kumush **lyan** bo'lgan, 10 ta mao va 100 ta fen ga teng bo'lgan. Kattaroq to'lovlarni amalgam oshirish uchun shunday kumush tangalar bo'lgan va ularning og'irligi 50 lyan ga to'g'ri kelgan. Qishloq joylarda asosan qadimiy tangalardan – “syani” yoki “keshi” deb nomlangan tangalardan foydalanishar edi.

Yuan pul birligi esa 1835 –yildan boshlab kumush tangalar ko'rinishida ishlab chiqarilgan . 1930- 1933-yilgacha “lyan” dan har xil soliq to'lovlarini amalga oshirishda foydalanilgan.

Yana bir misol:

开始,还没有一尺长,到了地上,就和人一样高了.

(kai shi, hai mei you yi chi chang,dao le di shang,jiu he ren yi yang gao le)

Tarjimasi :

Dastavval uning ko'rinishi kichkinagina **bir cher uzunlugida** bo'lsa-da , uchib yerga qo'nganida oy farishtasining bo'yi odamlarnikiday edi.

尺(chi)- “chi” uzunlik o'lchovi. 1-chi 38 santimetrga teng ⁴⁸

O'lchov birliklari haqida so'z ketar ekan , keling o'lchov birliklarining tarixi haqida qisqacha ma'lumot berib o'tamiz. Har bir o'lchov birligi o'zining uzoq tarixiga ega . O'lchov birliklari mavjud bo'lmagan davrlarda odamlar o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib, biror narsaning miqdorini o'lchashda ulardan foydalanganlar . Ilgari inson tana a'zolari ham o'lchov vositasi sifatida qo'llanilgan . Bizga yetib kelgan yozma yodgorliklarda ular o'z ifodasini topib, turli davrlarda har xil yuritilgan . Asosiysi , bu o'lchovlarni hamma ham ishlata olishini hisobga olgan holda joriy etishgan . Masalan, ularni ishlatish

⁴⁸ O'sha manbaa. B.37.

uchun barmoq, qo'l, qadam, ko'z, quloq, bo'g'in, chaqirim, qo'sh , tegirmon, mo'ndi, tirsak, tosh va boshqa narsalar asos qilib olingan.

1918-yil dunyoda metrik tizim joriy qilingunga qadar O'rta Osiyo mamlakatlarida quyidagi o'lchov birliklari bo'lgan. Masalan, marhala, farsax, botmon , pud, qadam, gaz, cho'zim, ziro, suyam, dona va boshqalar. Har xil qiymatlarni ifodalovchi bu o'lchov birliklari qadimdan xalqlarimiz o'rtasida turli qiymatga ega bo'lgan o'lchov vositasi sifatida xizmat qilib kelgan.⁴⁹

Yana shuni ta'kidlab o'tish kerakki , Xitoyda ham bir qancha o'lchov birliklari ixtiro qilingan. Masalan, dengizlarda suzish uchun kompas ixtiro qilingan (uning strelkasi Shimolni emas Janubni ko'rsatgan). Miloddan avval III-asrda yer qimirlashini aniqlovchi asbob (seysmograf) xam ixtiro qilingan. Mil. av. 613 yilga tegishli Xitoy qo'lyozmalari topilib unda Galley kometasi xaqidagi eng qadimgi ma'lumotlar uchraydi. Mil. av. II asrda Xitoyda osmon yoritgichlarining xarakati tasvirlangan birinchi osmon globusi, 2500 yoritgichning o'rni ko'rsatilgan yulduzlar katologi yaratilgan. Yangi taqvim joriy qilinib (mil. av. 104 y.), unga ko'ra bir yil 365- 241 kunga teng bo'lgan. Mil. av. 28 yilda Xan imperiyasining astronomlari quyoshda dog'lar mavjudligini kuzatganlar. Xitoy matematiklari tarixda birinchi bo'lib xisobda manfiy sonni qo'llaganlar.

Yana bir misol:

一千多里路,阿姑又走得慢,得用好长的时间.

(*yi qian duo li lu, a gu you zou de man, de yong hao chang de shi jian*)

Tarjimasi:

Ming chaqirim joydan kelishning o'zi bo'lmaydi, buning ustiga A Gu juda sekin yurib , ko'p vaqtimni oldi.

里 -(li) uzunlik o'lchov birliqi, 0,5 kilometr ga to'g'ri keladi . Bu yerda 一千多里路 (*yi qian duo li lu*) **ming kilometrdan ortiq yo'l** deb tarjima qilinadi, tarjimon **ming chaqirim** deb tarjima qilgan.

⁴⁹ ZIYOUZ.com

Yana bir misolni ko'rsak:

成名因为过了时间,十多天里,就挨了一百板子.

(*chenming yinwei guo le shijian, shi duo tian li, jiu ai le yi bai banzi*)

Tarjimasi:

Cheng Ming ham bu jazodan qutulmadi, belgilagan vaqt o'tib ketganligi sababli **yuz darra kaltak** bilan jazolandi.

Asliyatda hech qanday **darra** so'zi yo'q, 板子(*ban zi*)- doska, kaltak deb tarjima qilinadi. Shunda 一百板子 -yuzta kaltak deb so'zma-so'z tarjima qilinadi. "Darra" so'zi jumlagam mos tanlangan va jumla chiroyli tarjima qilingan.

Yana bir misol:

一会儿,帘子又响了.

(*yi huir, lianzi you gao le*)

Tarjimasi:

Dam o'tmay, yana pardaning qimirlagani sezildi.

Bu jumladan 一会儿 (*yi huir*) "biroz" so'zining o'rniga "dam o'tmay" deb tarjima qilingan. Bu esa jumlaning yanada badiiylashtirgan.

Shu o'rinda yana bir narsani ta'kidlab o'tmoqchiman, dots. M.X. Mahmudxo'jayev va dots. J.T. Ziyamuhamedovlar tarjimasi "Pu Sungling. Lyao Jay rivoyatlari" kitobining kirish qismida Pu Sunglingning qanchadir pulga **besh dou** mosh sotib olgani va shu sotib olgan moshidan **moshxo'rda** tayyorlagani haqida so'z yuritilgan.

Dou –hajm o'lchami, 1-dou 10 litrga yaqin. O'rta asrlarda Xitoyda donli mahsulotlar dou hajm birligida o'lchangan⁵⁰.

Yana bu jumladan moshxo'rda so'zi keltirilgan. Moshxo'rda bu o'zbeklarning milliy taomlaridan biri hisoblanadi. Umuman xitoy tiliga aloqasi bo'lmagan odam demak xitoyliklarda ham biznikiga o'xshash taom bor ekan degan hulosaga kelishi mumkin. Lekin xitoyliklarda bunday taom yo'q. Tarjimon moshxo'rda so'zini o'rniga moshli taom deb bersa bo'lar edi.

⁵⁰ O'sha manbaa. B.4.

Liboslarga oid misollarni ko'rib chiqamiz.

刚写完,忽然进来了五个人,头上戴着八角帽子,身上穿着淡红色的衣服,他们一句话也不说,就把惠哥抓走了.

(*Gang yu wan, hu ran jin lai le wu ge ren, tou shang dai zhe ba jiao maozi, shen shang chuan zhe dan hong se de yi fu, tamen yi jiu hua ye bu shuo, jiu ba hui ge pa zou le*)

Tarjimasi:

She'ni yozib bo'lishlari bilan honaga to'satdan sakkiz burchakli bosh kiyim, ustiga och qizil rangdagi **chopon** kiyib olgan besh odam kirib kelishdi.

Tahlil qiladigan bo'lsak, 身上穿着淡红色的衣服 (*shen shang chuan zhe dan hong se de yi fu*) jumlasini so'zma-so'z tarjima qiladigan bo'lsak "egniga och qizil rangli kiyim kiygan" deb tarjima qilinadi. Lekin tarjimon davr muhitidan kelib chiqib va o'sha paytda ya'ni hikoyada keltirilganidek Lu knyazligi davrida erkaklar uzun choponga o'xshash kiyimlarda yurishlarini hisobga olib tarjimon tarjimani shunday bergan.

Shunga o'xshash yana bir misol :

你收藏的那件衣服,要留下一点准备自己用,我死以后,也不要忘记这件事.

(*ni shou cang de na jian yi fu, yao liu xia yi dian zhunbei zi ji yong, wo si yi hou, ye bu yao wang ji zhe jian yi fu*)

Tarjimasi:

Sen berkitib qo'ygan **choponni** hammasini ishlatib yuborma, ozginasini shaxsan o'zing ishlatishingga saqlab qo'ygin, esingda bo'lsin, mening bu gapimni men dunyodan ketganimdan keyin ham hech qachon unutma.

你收藏的那件衣服(*ni shou cang de na jian yi fu*) – "sen anavi kiyimni berkitib qo'ygin" deb so'zma-so'z tarjima qilinadi. Yuqorida qayd etganimizdek, bu yerda ham hech qanday **chopon** so'zi keltirilmagan. Lekin tarjimon erkaklarning egnidagi uzun kiyimni "chopon" shaklida tarjima

qilgan . Bu yerda “chopon” o’zbeklarning choponidan farqli o’laroq , ipakdan tikilgan bo’ladi.

Yana bir misol:

后来,鲁王有个非常喜爱的 妃子难产,所有的医生都毫无办法.有人把尚秀才能治难产的事告诉了鲁王.他立刻 派人去叫,尚秀才就把藏起来的那块布烧成灰,给妃子吃了,婴儿马上就生下来了.

(hou lai, lu wang you yi ge feichang gao ai de fei zi nan chan, suo you de yi sheng dou hao wu ban fa. You ren ba shang ji cai neng tai nan chan de shi gaosu le lu wang. Ta like pai ren qu jiao, shang ji cai jiu ba cang qilai de na jue bu shao cheng hui, gei feizi chi le, ying'er ma shang jiu sheng xia lai le.)

Tarjima:

Lu Knyazining juda yaxshi ko’rgan Surayyosi bo’lgan ekan, bu ayol og’ir oyoq bo’lib, tug’ishda qiynalib , tabiblar uning chorasini topolmadi, odamlar o’qimishli Shang og’ir tug’adiganlarni davolashini Lu Knyaziga aytishdi . U darhol **choparini** yubordi. O’qimishli Shang berkitib qo’ygan parcha **lattasini** yoqib , kul qilib , shu kulni Knyazning Surayyosiga ichkazdi. Bola darhol dunyoga keldi.

Bu yerda ikkita milliy koloritga oid so’z ishlatilgan . Birinchisi **chopar** so’zi , ikkinchisi **latta** so’zlari .

Bu so’zlarni tahlil qiladigan bo’lsak, asliyatdagi 派人去叫(*pai ren qu jiao*) **chaqirishga odam jo’natmoq** deb tarjima qilinadi. Lekin tarjimon **chopar** so’zini ishlatgan . Bizga ma’lumki qadimda biror bir narsaga odamlarni jo’natsa “chopar jo’natdim” deb aytilar edi. Bu yerda tarjimonning so’zga usta ekanligi ko’rinib turibdi. “chaqirishga odam jo’natmoq” ifodasining o’rniga “chopar” so’zini ishlatib jumla yanada badiiy va o’zbekona tarjima qilingan.

Lekin ikkinchi so’zda biroz xatolikka yo’l qo’yilgandek. **“latta”** so’zining o’rniga **“mato”** yoki biror bir boshqa so’zni ishlatganda tarjima chiroyliroq chiqar edi.

Yana bir misol:

脱下一看,两只小脚儿,穿着带孝的白鞋,原来是个女的.

(*tuo xia yi kan, liang zhi xiao jiao'r, chuan zhe dai xiao de bai xie, yuan lai shi ge nu de*)

Tarjimasi:

Oyoq kiyimini yechib ko'rib, **motam belgisi bo'lmish oq poyafzalli** kichkina oyoqchalarni ko'rishdi.

Bu jumladan ko'rinib turibdiki "oq poyafzal" Xitoyda motam belgisi hisoblanar ekan. Demak, Xitoyda "oq rang" motam belgisi hisoblanadi.

Yana shunga o'xshash misol:

由于这人带孝,有人怀疑是商家的人.

(*you yu zhe ren dai xiao, you ren yi shi shang jia de ren*)

Tarjimasi:

Uning motam libosidaligini ko'rib, Shang avlodidan bo'lsa kerak, deb shubha qilishdi.

Frazeologizmlarga oid misollar.

Tarjimashunoslikda eng murakkab jarayonlardan biri bu shubhasiz frazeologizmlar tarjimasi hisoblanadi.

Frazeologik birliklarni tarjimada adekvat talqin etish tarjima amaliyotining o'ta murakkab va shu bilan birga, juda mas'uliyatli masalalardan hisoblanadi. Chunki, frazeologik birliklar nutqning badiiy-tasviriy vositalari sifatida fikrning oddiy, betaraf bayonidan ko'ra ko'proq turli-tuman uslubiy vazifalarni ifoda etishda ishtirok etadi.

"Frazeologik birikmalarni oddiy so'z birikmalaridan ajratishning to'rt asosiy belgisi:

- frazeologik birikmalarning ma'lum bir model asosida yasalmasligi;
- ko'chma ma'noda ishlatilishi;
- turg'unligi;

- ikki yoki ko'p mustaqil so'zlardan yasalishi"⁵¹ ma'lum.

Frazeologik birliklarni tarjima qilishning o'ta murakkab amaliy jarayon ekanligi asosan mazkur birliklarning leksik , semantik va qurilish jihatlaridan murakkabligiga bog'liqdir. Bundan tashqari, talay frazeologizmlar milliy hususiyatga egadirki, bu hol tarjimonlarga qiyinchiliklar tug'diradi.

Shakl va mazmunning dialektik birligi har bir asarda mujassam bo'lgani kabi uni tashkil etadigan so'z va iboralarda , jumla va parchalarda ham aks etadi. Bu hususiyat har bir milliy yozuvchi ijodida ham o'ziga hos o'ringa ega bo'ladi.

“Juda ko'p frazeologizmlar borki, ular hijjalab tarjima qilinsa , bema'ni so'z uyumlari hosil bo'ladi, holos”.⁵²

Xitoy va o'zbek halqining tarihiy va madaniy munosabatlarini til uzviy bog'lab turadi. Shunga ko'ra, biz tadqiqotimiz davomida ikki tilda ham mavjud bo'lgan ko'pgina frazeologik birikmalarni o'rgandik. Shuningdek , o'zbek tilining nihoyatda boyligi va purma'noliligi hamda tarjimonning mahorati ushbu tarjimalarda yaqqol ko'zga tashlangan . Chunki xitoy tilida oddiy so'z bilan berilgan ko'pgina jummalarni tarjimon mahorat bilan o'zbek tilida mavjud frazeologik iboralar bilan almashtirib , ma'nosiga mos iborani topib o'rnida qo'llay olgan .

Har bir til frazeologik zahirasi tarkibida halq hayotiga mansub ijtimoiy – tarihiy voqea-hodisalar , ahloqiy va ma'naviy –madaniy me'yorlar, ruhiy holatlar , diniy tasavvur , milliy an'ana va urf-odatlar o'z aksini topgan bo'ladi.

Turli tillardagi frazeologik birliklarning bir-biriga har jihatdan o'xshashligi aksariyat hollarda halqlar turmush sharoitlari , urf- odatlari va mantiqiy mushohadalaridagi mushtaraklik bilan izohlanadi. Zero , til

⁵¹ Badiiy tarjimaning aktual masalalari.- Toshkent, 1977.-B.62.

⁵² G' .Salomov. Til va tarjima .- Toshkent, 1966.-B.262.

vositalari singari frazeologizmlar ham turli –tuman umuminsoniy fikrning bayon me'yorlari va hayotiy kuzatishlar asosida vujudga keladi.

Moddiy jihatdan o'xshash ikki til frazeologik ekvivalentlari ma'no va uslubiy vazifa jihatidan ham aksariyat hollarda bir-biriga mos bo'ladi, chunki bunday paytlarda birliklar negizida bir hil hayotiy tajribaga asoslangan tushunchalar yotadi. Bu hil frazeologik birliklar tarjimada bir-birlarini bimalol almashtira oladi.

Yana shuni ta'kidlash joizki, insoniyat yaralib, tili so'zga kelib, bir-biri bilan muomala qila boshlagandan boshlab hikmatli so'zlar, maqol- matallar va frazeologik iboralardan foydalanayapti. Frazeologik iboralarda dunyo-dunyo fikrlar singgan bo'lib, insonlar o'zlarining fikrlarini lo'nda, qisqa, ma'noli qilib yetkazish uchun frazeologik iboralardan foydalanib kelmoqda.

Har bir xalqning o'ziga xos madaniyati, urf- odatlari bor bo'lib, bular esa frazeologik iboralarga ham singgandir.

Frazeologik iboralarni u tildan bu tilga tarjima qilishda o'sha xalqning madaniyati, urf- odatlarini o'rganish va bilish kerak.

Yozuvchilar adabiy asarlarida hikmatli so'zlar, maqol- matallar va frazeologik iboralardan foydalanib yana ham boy, yanada mazmundor qilib yozib, kitobxonlarni ham jalb qiladilar. Bir xorijiy tilni o'rganganda, o'rganayotgan tilda xorijliklar bilan ravon gaplashish uchun shu xorijiy tildagi frazeologik iboralarni ham o'rganish kerak.

Xitoy, o'zbek xalqlarining urf- odatlari o'xshash bo'lmaganligi tufayli to'g'ridan – to'g'ri tarjima qilinmasdan ularning ekvivalentlari beriladi. Agar oddiy bir iborani misol qilib oladigan bo'lsak, 拔苗助长 (*ba miao zhu zhang*)⁵³ iborasini o'zbek tiliga so'zma- so'z tarjima qilsak, "Maysaning tez o'sishi uchun, maysani tortib, o'sishiga yordam bermoq" degan ma'no kelib chiqadi. Uning o'zbekcha ekvivalenti: "Qosh qo'yaman deb ko'z

⁵³ 汉乌俄成语词典-xitoycha-o'zbekcha-ruscha frazeologik lug'at.
T.Akimov., J.K.Kiraubayev. Toshkent, 2002.-B.5.

chiqarmoq” dir. Ushbu iboraning kelib chiqish tarixiy hikoyasi quyidagicha: Bir kuni bir dehqon kishi ekin maydoniga borib qarasa, ekan maysalari juda sekin o’sayotganmish, sekin o’sishiga sabr-toqat qila olmagan dehqon maysalarni tortib-tortib ularni o’sishiga yordam bera boshlabdi, ertalabdan kechgacha qora terga botib ishlab uyga qaytib kelib, o’g’liga shunday debdi:

“Men bugun maysalarni tortib o’stiraman deb, rosa ishladim, juda charchadim qornim juda ochib ketdi”. Buni eshitgan o’g’li xayron bo’lib ekin maydoniga chopib borib qarasa hamma maysalar so’lib qolgan ekan.

“Qosh qo’yaman deb, ko’z chiqarmoq” iborasining kelib chiqish tarixiy hikoyasi quyidagicha: Bizning o’zbek qizlarimiz o’sma qo’yishni juda yaxshi ko’rishadi. Qadimda bir qiz o’sma qo’yish uchun qamishdan to’qilgan kegiz tagiga solingan bo’radan sindirib olib, qosh qo’ya boshlabdi va extiyotsizlik qilib, cho’pni ko’ziga sanchib olib ko’r bo’lib qolibdi. Ushbu hikoyadan “Qosh qo’yaman deb ko’z chiqarmoq” iborasi kelib chiqqan ekan.

Endi o’zimizning mavzuga oid misollarni ko’rib chiqamiz:

如果你想满足自己的欲望, 还是去和贼交往吧, 我不能帮着你干这种丢人的事.

(*ru guo ni xiang manzu zi ji de yu wang, hai shi qu he ze jiao wang ba, wo bu neng bang zhe nig an zhe zhong diu ren de shi*)

Tarjima orqali tahlil qilib chiqamiz, 如果你想满足自己的欲望(*ru guo ni xiang manzu zi ji de yu wang*) jumlasini so’zma –so’z tarjima qiladigan bo’lsak “agar sen o’z hohishingdan qoniqayotgan bo’lsang” deb tarjima qilinadi. Asarda esa tarjimon bu jumlaning “**nafsning ketidan yurmoqchi bo’lsang**” deb tarjima qilgan. Aslida 满足(*man zu*) so’zi hitoy tilida “qoniqish” degan ma’noni bildiradi, 欲望(*yu wang*) esa “hohish, chanqov”

degan ma'noni bildiradi. Ana shu "hohish, chanqov" so'zlarini tarjimon "nafs" so'zi orqali ibora bilan tarjimani boyitgan.

我不能帮着你干这种丢人的事. (*wo bu neng bang zhe ni gan zhe zhong diu ren shi*) jumlasini "men senga o'xshaganlarga ya'ni meni ishimni aybli ish deb qaraganlarga yordam berolmayman" degan ma'noni anglatadi. Aynan shu jumlaning tarjimon juda chiroyli keltirgan, ya'ni, "men sen kabi **nokaslarga** yordam berolmayman" degan jumlaning tarjimada keltirgan.

看来,你的命不太好啊.

(*kan lai, ni de ming bu tai hao a.*)

So'zma –so'z tarjima qiladigan bo'lsak bu jumla "ko'rinib turibdi-ki, sening hayoting unchalik yaxshi emas ekan-da" degan ma'noni bildiradi. Tarjimon esa bu jumlaning o'zbek iborasi bilan bergan, bu esa jumlaning ham ta'sirchanroq, ham tarjimani chiroyli chiqishida muhim ahamiyat kasb etgan. Masalan, 看来,你的命不太好啊 (*kan lai, ni de ming bu tai hao a.*) jumlasini "bundan kelib chiqdiki, senga **taqdir kulib boqmabdi**" deb tarjima qilgan.

一千多里路,阿姑又走得慢,得用好长的时间.

(*yi qian duo li lu, a gu you zou de man, de yong hao chang de shi jian.*)

So'zma so'z tarjimasi :

Ming kilometrdan ham ko'p yo'l ekan, buning ustiga Agu juda sekin yurib, ko'p vaqtni oldi.

Tarjimon esa jumlagi ibora kiritib tarjima qilgan.

"Ming chaqirim joydan kelishning o'zi bo'lmaydi. **Yo'l azobi-go'r azobi.** Buning ustiga Agu juda sekin yurib, ko'p vaqtni oldi" deb tarjima qilingan. O'zbek tilida ushbu ibora juda faol hisoblanadi.

Iboralarni o'rniga qo'yib ishlatish tarjimonning mahoratini san'at darajasida ekanligini ko'rsatadi.

哪里有父亲没死几天就结婚的?

(*na li you fu qin mei si ji tian jiu jiehun de?*)

So'zma-so'z tarjimasini ko'radigan bo'lsak , “otangiz o'lmaganda to'y qilmasmidik” deb tarjima qilinadi. Aslida so'zma – so'z tarjimasi ham yomon emas, lekin tarjimon o'zbek tiliga , aynan o'zbek halqiga tarjima qilayotganligi uchun 死 (si) –**o'lmoq so'zini “azador”** so'ziga almashtirib, jumlani chiroyli tarzda taqdim qilgan :

“Oilamiz azador bo'lsa , hozir to'y haqida o'ylash mumkinmi?”

仆人趁火打劫,把他的钱偷走了.

(*Pu ren chen huo da jie, ba ta de qian tou zou le*)

So'zma so'z tarjimasi:

Hizmatkor uning bu qayg'usidan foydalanib, uning pullarini o'g'irlab ketadi.

Tarjima :

Kemada mayda- chuyda ishlarni bajaruvchi hizmatkorlardan biri **o'lganni ustiga chiqib tepganday** , uning pulini o'g'irlab ketdi.

Tahlil :

“趁火打劫 (*chen huo da jie*)-birovning qayg'usidan foydalanib” degan ma'noni bildiradi. Tarjimon esa bu so'zning o'rniga “**o'lganni ustiga chiqib tepganday**” iborasini ishlatgan .

这女人四十多岁,穿得很好,长得也漂亮.

(*zhe nu ren si shi duo sui, chuan de hen hao, chang de ye piaoliang*)

Tarjimasi :

Ayolning yoshi qirqlardan oshgan edi. Yaxshi kiyingan , hushbichim qomatli, istarasi issiq, bundan tashqari u juda aqlli, **yetti o'lchab, bir kesadigan** ayollardan edi.

So'zma – so'z tarjimasi “ bu ayolning yoshi qirqlardan oshgan edi, yaxshi kiyingan , ko'rinishi ham chiroyli edi”. “**yetti o'lchab , bir kesish**” iborasi jumlagi mos tanlangan.

Xitoyda “Yetti o'lchab bir kes” iborasining kelib chiqish tarixiga bir nazar tashlab o'tsak. “Qadimda bir odam , Yang xonligining podsholaridan

birini abadiy hayot sirlaridan voqif qilmoqchi bo'libdi. Hukmdor Van bu sehrgarlikni o'rganish uchun u kishining oldiga vakil yuboribdi. Vakil, bu ilm sirlarini o'rganib ulgurmasdan abadiy hayot sirlarini o'rgatmoqchi bo'lgan kishi qazo qilibdi. Bundan xabar topgan xon, g'azabi oshib, vakilni ham o'linga hukm qilibdi. Aslida abadiy hayot sirlaridan voqif qilmoqchi bo'lgan kishi, bu ilmni bilmagan va xonni aldagan ekan. Buni tagiga yetmagan xon, gunohsiz vakilni aybdor qilib, uning qotiliga aylanibdi. Qissadan hissa shuki, har bir davlat boshqaruvini qo'lga olgan xon, bir qarorga kelishidan avval, chuqur o'ylab, keyin xulosa qilmog'i lozim. Aks holda, jallodga aylanib qolishi tabiiydir.”⁵⁴

Yana bir misol :

听说你读书多,想跟你谈谈.⁵⁵

(*ting shuo ni du shu duo, xiang gen ni tan tan*)

Tarjima:

“ Eshitishimcha, **sen bilimning orqasidan quvlab** juda ko'p kitob o'qir ekansan, **shu bois sening suhbatingni olay deb keldim.** “⁵⁶

So'zma –so'z tarjima:

Eshitishimcha, sen ko'p kitob o'qir ekansan, sen bilan suhbatlashmoqchiman.

Tahlil :

Bu yerda tarjimon jumlani oddiygina so'zma so'z tarjima qilmagan, jumlaning iboralar bilan boyitib, tarjimani chiroyli keltirgan. **Bilimning orqasidan quvlab** iborasi jumla uchun mos tanlangan.

“sen bilan suhbatlashmoqchiman” jumlasini o'rniga “ **shu bois sening suhbatingni olay deb keldim**” deb tarjima qilingan. Bu tarjimani boy va chiroyli ko'rsatgan.

⁵⁴ Dots. M.X.Mahmudxo'jayev, dots.J.T.Ziyamuhamedov .Sharq adabiyoti janrlari(Xitoy xalq masallari), Toshkent,2005.-B.57.

⁵⁵ O'sha manbaa . B.7.

⁵⁶ Pu Sunling. Lyao Jay rivoyatlari //”Jahon adabiyoti”, 2003.- B.8.

“Ona tili boyligi bilan yaxshi qurollangan tarjimonlar odatda lug’aviy ekvivalentlikdan ko’ra vazifaviy uyg’unlikka ko’proq e’tibor berganlari holda , badiiy matnning estetik hususiyatini qayta yaratadilar. Shunday hol ayniqsa dialogik nutq tarjimasi misolida yanada yaqqolroq ko’zga tashlanadi. Bu hususiyat madaniyat darajasi va bilim saviyasi bilan birbirlaridan ajralib turadigan personajlar nutqi tarjimasida ko’proq namoyon bo’ladi. Quyida keltirgan jumlamiz bunga misol bo’la oladi.”⁵⁷

“听说你读书多”(ting shuo ni du shu duo) ifodasini tarjimon bemalol asliyatga moslab “ eshitishimcha sen ko’p kitob o’qir ekansan “ tarzida o’girishi mumkin edi , chunki ayni vositadan muqobil vaziyatlarda foydalanish hollari uchrab turadi. Biroq bu o’rinda o’zbekning odatda , tarjimada berilganidek , “eshitishimcha , sen **bilimning orqasidan quvlab** juda ko’p kitob o’qir ekansan” birikmasidan foydalanishni ma’qul ko’rishini anglagan san’atkor mavjud imkoniyatdan o’rinli foydalangan. Fikrni sof o’zbekcha bayon etib, matnga og’zaki nutq hususiyatini baxsh etgan .

Yana bir misol:

他非常失望,很生老头的气,并骂他骗人.

(ta fei chang shi wang, hen sheng lao tou de qi, bing ma ta de pian ren.)

Tarjimasi:

Bundan g’azablangan olim qariya bilan janjal ko’tarib, uni haqoratlab , “**ko’zbo’yamachi**” deb ayblabdi.

So’zma-so’z tarjima:

U judayam hafa bo’lib ketibdi, qariyaning jahlini chiqarib , uni yolg’onchi deb ayblabdi.

Bu jumlani tahlil qiladigan bo’lsak , jumla chiroyli , badiiylashtirilib , yorqin tarjima qilingan. Masalan , 失望 (shi wang) so’zining ma’nosi **umidini**

⁵⁷Q.Musayev., Tarjima nazariyasi asoslari.- Toshkent,2005.-B.45.

yo'qotmoq, hafsalasi pir bo'lmoq, hafa bo'lib ketmoq bo'lib,⁵⁸ tarjimon o'zbek tili nuqtai nazaridan **“g'azablangan”** deb tarjima qilgan. Va bu bilan jumla tarjimasining aniq chiqishini ta'minlagan hamda bu ibora tarjimaning ayni ekvivalenti bo'lib, tarjimon juda topqirlik bilan tarjimani amalga oshirgan. Tarjima jarayonida tarjimon turli hil aynan shu ma'noni beradigan iboralarni qo'llagan. Bir iborani takrorlamasdan, o'zbek tilining boy va purma'no ekanligini yana bir bor isbotlagan.

很生老头的气 (*hen sheng lao tou de qi*) jumlasini **“qariyani haqoratlab”** deb tarjima qilingan, so'zma -so'z tarjimada “qariyaning jahlini chiqarib” degan ma'no kelib chiqadi. Tarjimonning oddiy jumlaning o'rniga badiiy so'zni ishlatgani bu uning yutug'i hisoblanadi.

骗人 (*pian ren*) aslida yolg'onchi degan ma'noni bildiradi. Tarjimon “yolg'onchi” so'zining o'rniga **“ko'zbo'yamachi”** degan so'zni ishlatgan. Bu esa tarjimonning naqadar so'zga usta ekanligini ko'rsatadi.

Tarjimon nafaqat muayyan uslubiy vazifa ifodasi uchun qo'llanilgan obrazli yoki hissiy ta'sirchan lisoniy vositani, balki odatda amaliy jihatdan qiyinchilik tug'dirmaydi deb tasavvur qilinadigan u yoki bu erkin ma'nodagi so'z yoki so'z birikmasini o'girishda ham har doim o'sha vosita mazmunini tarjima tilida qanday so'z yoki so'z birikmasi aniqroq va to'laroq ifoda mumkinligi haqida bosh qotirishi, mavjud variantlardan qaysi birining asliyat ruhiga ko'proq mos kelishi haqida o'ylashi, o'ziga doim nazarda tutilgan fikrni qay tarzda yanada ravonroq bayon etishi mumkin, degan savolni berishi lozim.

Tarjimada, ayniqsa o'zbek tilida frazeologizmdan foydalanish tabiiy o'zbekona jarangdorlikni yuzaga keltiradi.

⁵⁸ 精选汉俄-俄汉词典-Краткий русско-китайский и китайско-русский словарь.-1988.- г. Пекин.

2.2. Novellalarda tarixiy an`analarning aks ettirilishi

Pu Sungling asarlari xitoy xalqlari hayotining o`ziga xos qomusi, Sharq madaniy merosining ajralmas tarkibiy qismi, xitoy jamiyatidagi turli tabaqalar hayoti va o`ziga xosliklari (mentaliteti) haqida fikr yuritish imkoniyatini yaratuvchi ma`lumot manbai deyish tog`ri bo`ladi.

Xitoyda novellasimon kichik epik janrlar yozma adabiyot va xalq og`zaki ijodining III – XIX asrlardagi doimiy o`zaro aloqalari asosida rivojlanib keldi. Shuning uchun ham, umuman, o`rta asr adabiy jarayoni muammosini adabiyot va folklorning o`zaro aloqalari nuqtai-nazaridan, xususan esa, folklor syujetlari va mifologik obrazlarning transformatsiyasi muammolarini Pu Sungling novellalarining barcha g`oyaviy-badiiy tizimi doirasida o`rganilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ming sulolasi davrida (1368-1644) konservatizm va davlat tizimining chirib borishi oqibatida xitoy adabiyotida turg`unlik davri maydonga kelishiga sabab bo`ldi. Hukmron tabaqa o`z hokimiyatini mustahkamlash borasida Sung faylasuflari falsafasidan keng foydalanardi. Davlat imtihonlarida iyeroglif sxolastik adabiy uslubi joriy etildi. Adabiyotda badiiy shaklning turg`unlashishi, fikrning sakkiz bo`lakli jumlagi majburlab sig`dirilishi natijasida so`z san`atining sun`iylashish jarayoni boshlandi. Umrini o`tagan shakliy va lisoniy adabiy an`analar qayta qonunlashtirildi. Biroq tanazzulga mahkum bo`lgan adabiyot ichida xalq ommasidan ajralmagan adabiyot ham rivojlanishda davom etdi, ayniqsa badiiy nasr – hikoya, qissa, roman alohida ahamiyat kasb eta boshladi. Bularning rivoji shaharlarning yuksalishi, savdo va hunarmandchilik sohasining jonlanishi bilan bog`liq edi.

Quyida M.X.Mahmudxo`jayev va J.T.Ziyamuhamedovlar tomonidan o`zbek tiliga tarjima qilingan “Lyao Jay rivoyatlari” asarining birinchi qismida keltirilgan rivoyatlarda tarixiy an`analarning bayoniga e`tibor qaratsak. Xususan, “雨 钱” “Osmondan tushgan pullar” hikoyasiga to`xtalar ekanmiz, unda qadimdan xitoyda ilm-fan, ma`rifatga alohida e`tibor qaratilishi bayon etiladi.

Hattoki, Xu ismlik qariya, o'zi o'ta bilimdon va tulki zotlarining piri bo'lishiga qaramay, bilim ortidan quvlab juda ko'p kitob o'qiydigan bir olimning uyiga tashrif buyuradi. Albatta rivoyatda kishilarning o'z manfaati yo'lida har qanday tubanlikar tuzog'iga tushishi ham aytib o'tiladi lekin, biz aynan tarixiy an'analarning kitobxonga yetkazilishiga alohida e'tabor qaratishga maqsad qildik.

Quyida xitoy tilidagi matn va uning tarjimasi bilan tanishamiz. "Osmondan tushgan pullar" rivoyatining nomlanishi xitoy tilida "雨钱 (yuqian)" atamasi bilan beriladi. Bu ikki iyeroglifni o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilganimizda "yomg'irli pullar" yoki "pul yomg'iri", - deb ham tarjima qilish mumkin. Biroq matnning tarjimasi va mohiyati bilan to'liq tanishib chiqilgan mualliflar M.X.Mahmudxo'jayev va J.T.Ziyamuhamedovlar tomonidan rivoyatning nomlanishini "Osmondan tushgan pullar" ko'rinishida tarjima qilingan.

“有个季才，一天正在读书，听见有人敲门，开门一看，是个老头。这老头的打扮好象古人的样子。请进来后，老头自我介绍：“我性胡，是胡仙。听说你读书多，想跟你谈谈。”

(you ge li cai, yi tian zheng zai du shu, ting jian you ren qiao men, kai men yi kan, shi ge lao tou. Zhe lao tou de da fen hao xiang gu ren de yang zi. Qing jin lai hou, lao tou zi wo jie shao: "wo xing hu, shi hu xian. Ting shuo ni du shu duo, xiang gen ni tan tan")

So'zma-so'z tarjimasi:

“Bir olim bo'lgan ekan. U bir kuni kitob o'qib o'tirgan vaqtda, kimdir eshik taqillatganini eshitdi, eshikni ochib qarasa, bir qariya ekan. Bu qariya eskicha (avvalgi odamlardek) kiyingan (yoki, eski davrlardagi kishilar ko'rinishida)kiyimlar kiiyinib olgan edi. Uyga taklif qilgandan keyin, qariya o'zini tanishtiribdi: Mening familiyam Hu, Hu Sianman. Eshitishimcha sen juda ko'p kitob o'qir ekansan, sen bilan suhbatlashishni xohlayman.””

Endi "Lyao Jay rivoyatlari" to'plamida keltirilgan tarjima bilan tanishamiz: "Bir olim har doim boshini ko'tarmasdan ilm bilan mashg'ul ekan. Bir kuni u

kitob o`qib o`tirsa, darvozani kimdir taqillatibdi. Darvozani ochsa, qadimgi keksalarning kiyimini kiygan bir qariyaning darvoza oldida turganini ko`ribdi. Shunda qariya o`zini tanishtirib, “Mening ismim Hu, tulki zotlarining piri bo`laman. Eshitishimcha, sen bilimning orqasidan quvlab, juda ko`p kitob o`qir ekansan, shu bois, sening suhbatingni olay deb keldim”, -debdi.”

我性胡, 是胡仙. 听说你读书多 jumlasidagi 我性胡 *wo xing Hu* – “mening familiyam Hu”, 是胡仙 *shi Hu Xian*, (ya`ni to`liq ismi sharifi) “Hu Sian” ekanligini bildiradi. Xitoylarda ismlar ikki va ayrim hollarda uch bo`g`indan tashkil topgan bo`lib, ular o`zlarini tanishtirayotganda avval familiyasini keyin esa ismini aytishga odatlangan. 是 *shi* grammatik xususiyatga ega bo`lib, ot kesimli gaplarni bir – biriga bog`laydi. Ega takrorlangan hollarda gapning ikkinchi qismida 是 *shi* dan avval kelayotgan ega tushirib qoldirilishi mumkin. Ya`ni:

我性胡, 我是胡仙 *emas*, balki 我性胡, 是胡仙 ko`rinishida berish mumkin bo`ladi.

“Lyao Jay rivoyatlari” to`plamidagi tarjimada aynan 我性胡, 是胡仙 jumlasini - “*Mening ismim Hu, tulki zotlarining piri bo`laman*”, deb tarjima qilinadi.

Buni quyidagicha izohlash mumkin. “Osmondan tushgan pullar” rivoyatining to`liq matni bilan tanishib chiqqan tarjimonlar, mazkur rivoyatni bizning tafakkurimizga moslash uchun qayta ishlov berganlar va matnning mohiyatidan kelib chiqib, 我性胡, 是胡仙 jumlasini - “*Mening ismim Hu, tulki zotlarining piri bo`laman*”, deb tarjima qilganlar.

Yoki, “....老头生气的说: “我来找你, 是为了研究学问, 讨论文章, 并不想跟你一起作贼....””.

So`zma-so`z tarjimasi:

“.... *Qariyaning jahli chiqib, “seni qidirib kelganimning sababi, ilm-fanni tadqiq qilish, maqolalarni muhokama qilish, sen bilan birga zararkunandalik qilish emas””*.

Tarjimonlarning mahorati bilan bu jumlar aniq tarjimasi, mohiyati va muallifning maqsadi kitobxonga quyidagicha aniq yetkaziladi.

“Seni qidirib kelishimning sababi, sen bilan birorta jinoyatga qoʻl urish emas, balki ilm, fan va baʼzi ijodlar ustida izlanish va fikrlashish edi”.

Rivoyatdagi voqealar rivojidan koʻrish mumkinki, xitoy xalqi, millati qadimdan oʻzi ilmlilik boʻlsada, kamtar boʻlgan holda yana ilm izidan qolmaslik zaruriyatini tushintiradi.

Shuningdek, ochkoʻz “olim”ning kalitabinligini kitobxonlarga maʼqul misollar orqali tushintiradi, yana boshqa davlatlarda boʻlgani singari xitoy tarixida ham olimlar oʻzlari yigʻilib, ilm fan va boshqa turli masalalarda fikr almashib, bilim darajalarini charxlab borganlar.⁵⁹

Yoki asardagi “八哥儿”(“Toʻtiqush”) rivoyatini olaylik, bunda toʻtiqush, xoʻjayin va podsho bir qaraganda maʼjoziy obrazni namoyon qiladi. Muallif goʻyoki turli davrlarda ham hukmdorlar orasida uchrab turadigan ayrim jihatlarni qoralagandek. Yaʼni xalqi uchun xizmat qilish oʻrniga oʻzining vaqtini chogʻ oʻtishiga davlat gʻaznasidagi pullarni sarflaydigan shohni tanqid qilganday.

Masalan “....这人把八哥儿带进城,在大街上和他互相问答,很多人围着看.大王知道了这事.就把八哥儿的叫到宫里.他从未见过这么机灵的八哥儿,非常喜欢,一心想买.但是八哥儿的主人却说:

“我和它相依为命,舍不得卖.”

大王想了想,问八哥儿:“你愿意留在这儿吗?”

“愿意”.八哥儿很痛快地答道.

大王很高兴.八哥儿还对大王说:

“你给他十两金子就行,别多给”

Soʻzma-soʻz tarjimasi:

“....bu odam toʻtiqushni shaharga olib kiribdi, katta koʻchalarda oʻzaro suxbat qurardi, atrofda juda koʻp odamlar qarardi. Podsho bu ishdan

⁵⁹ M.X.Mahmudxoʻjayev., J.T.Ziyamuhamedov., Lyao Jay rivoyatlari.- T, 2003.- B.8.

(voqeadan) xabar topibdi. Darhol to`tiqushni saroyga keltirishlarini buyuribdi. U g`aroyib to`tiqushni hali ko`rmasdan yoqtirib, sotib olishni xohlabdi. Biroq to`tiqushning xo`jayini shunday debdi:

“Men va u ko`pdan beri birga yashaymiz, uni sota olmayman.”

Podsho qayta qayta (qancha) o`ylab, to`tiqushdan so`rabdi: *“Sen bu yerda qolishni xohlaysanmi??”*

“Albatta”. To`tiqush xursand bo`lib javob beribdi.

Podsho juda xursand bo`libdi. To`tiqush podshohga yana debdi:

“Sen ho`jayinimga o`n sar oltin bersang yetadi, ko`p berma...”

To`plamdagi tarjimasi:

“...Bu suhbatdan so`ng xo`jayin to`tiqushni olib shaharga kiribdi. Gavjum bo`lgan shahar ko`chalarida yurar ekan, xo`jayin bilan to`tiqush qiziq suxbatlar qurib, to`tiqush o`zining ajoyib hunarlarini shahar aholisiga namoyish qilibdi. Ko`p o`tmay, to`tiqush haqida afsonalar podshoning qulog`iga yetib boribdi. Podsho o`z odamlariga buyruq beribdi, ular darhol qushni saroyga keltirishibdi. To`tiqushni ko`rgan podsho uning chaqqon, rang-barang o`yinlari va qobiliyatiga tasannolar o`qibdi. Bir so`z bilan aytganda to`tiqushni yoqtirib qolibdi va sotib olmoqchi bo`libdi. Buni eshitgan xo`jayin podshoga ikkilanib: “Biz bir-birimizga tayanib yashaymiz, men uni sizga sotishga botina olmayman”, debdi. Shunda o`ylanib qolgan podsho: “Sen bizda qolishni xohlaysanmi?” deb to`tiqushdan so`rabdi. To`tiqush xursand kayfiyatda, “Jonim bilan” deb javob qaytaribdi.

Buni eshitgan podsho quvonib ketibdi. Shunda to`tiqush podshoga qarab, “Sen xo`jayinimga o`n sar oltin bersang yetadi, undan ortig`i ko`plik qiladi”, debdi ”

Mazkur rivoyatda ham xuddi “Osmondan tushgan pullar” rivoyati singari tarjimonlar so`z sehridan foydalangan holda kitobxonga aniq va tushunarli qilib tarjima qilish usulidan foydalanganlar.

To`plamda keltrilgan “僧 术” (“Afsungar rohib”) rivoyatida mehnat qilish va buning natijasida yaxshi hayotga ega bo`lish muminligi, ochko`zlik, yolg`on

gapirishning yomon oqibatlari hamda inson yashar ekan har doim ham hayot yo`li bir tekisda davom etmasligi tushuntiriladi. Ya`ni rohibning ta`rifiga ko`ra, ziqna odam bilan hech qachon birorta katta ish qilib bo`lmasligi tushuntiriladi.

Ma`lumki xitoy tabobati butun jahonda o`zining alohida o`rniga ega. Albatta buning kichik ko`rinishlari novellalarda turli obrazlar orqali bayon etiladi. Masalan “Notiqlik qobiliyati” rivoyatida asosiy qahramon bo`lgan tabib ayol, kishilarni davolashda nafaqat dori-darmon, balki so`z sehrining ahamiyati nechog`lik o`tkir ekanligini isbotlaydi. Balki bu holatni “ko`zboyamachik”ka yo`yish ham mumkindir, biroq, nazarimizda rivoyatda vaziyatdan chiqish uchun har qanday usullardan foydalanish, shuningdek, notiqlik san`atini ishga solish orqali ham maqsadlarga erishish mumkinligi bayon etiladi. Bundan ko`rish mumkinki, qadimdan xitoyda nafaqat tabobat ilmining rivoj topgani, balki, ayollarning ustamonligi, notiqligi ularni qiyin vaziyatlardan chiqishiga ko`maklashganini bilish mumkin. Shuningdek, qadimda xitoydan fol ochish, ruhlarga ishonish kabi holatlarni nafaqat oddiy kishilar orasida balki davlat boshqaruviga oid kishilar hayotida ham ahamiyatga ega ekanligini kuzatish mumkin.

“商 三 官” “Shan Sanguan” rivoyatida, boylarga ortiqcha biror so`z yoki hazil qilishning oqibati nimalarga olib kelishi haqida fikrlar bayon etiladi. Shuningdek, otasining o`limidan aziyat chekkan farzandlar, xoh u o`g`il bo`lsin, xoh u qiz bo`lsin, albatta bu holatni javobsiz qoldirmasliklari aytiladi. Bundan tashqari, azadorlik vaqtida to`y marosimlari to`xtatilib turilishi, vafot etgan otaning hurmati joyiga qo`yilib dafn qilinishi oqila qiz tomonidan nafaqat ikki akaga balki ommaga ham tushuntiriladi. Xitoyda motam kiyimlarining o`ziga xosligi, xususan, azadorning kiyimiga qarab u vafot etgan shaxsning kimi ekanligini ajratish mumkinligi bugungi kunda ham o`z kuchini yo`qotmaganligini guvohi bo`lish mumkin. Ya`ni kiyimlardagi ayrim belgilarga qarab, qizi, o`g`li, akasi, ukasi, singlisi yoki nevarasi ekanligini ajratish mumkin.

Rivoyatda boyning kechirimli emasligi, nafsi uning boshiga yetganligini bayon qilinadi.

“王者” (“Podsho hazratlari”) rivoyatida ham nafs balosiga yo`liqqan podshoning achchiq qismati orqali, xalq talon taroj qilgan, poraxo`rlik va firibgarlik bilan shug`ullanadigan ziqna amaldorlar faoliyati qoralanadi va albatta bu kabi shaxslar xalq manfaati yo`lida xizmat qiladigan qahramonlar tomonidan jazolangani bayon qilinadi.

“劳山道士” (“Laoshanlik rohib”) rivoyati⁶⁰da dangasa, ishyoqmas va yengil hayot kechirishni orzu qiladigan odamlar hayoti qoralanib, buning oqibati uyatli holatlarga olib kelishi tushintiriladi.

⁶⁰ O`sha manbaa. B.36.

II bob bo'yicha xulosa

1. Tarjimon nafaqat muayyan uslubiy vazifa ifodasi uchun qo'llanilgan obrazli yoki hissiy ta'sirchan lisoniy vositani, balki odatda amaliy jihatdan qiyinchilik tug'dirmaydi deb tasavvur qilinadigan u yoki bu erkin ma'nodagi so'z yoki so'z birikmasini o'girishda ham har doim o'sha vosita mazmunini tarjima tilida qanday so'z yoki so'z birikmasi aniqroq va to'laroq ifoda mumkinligi haqida bosh qotirishi, mavjud variantlardan qaysi birining asliyat ruhiga ko'proq mos kelishi haqida o'ylashi, o'ziga doim nazarda tutilgan fikrni qay tarzda yanada ravonroq bayon etishi mumkin, degan savolni berishi lozim.

Tarjimada, ayniqsa o'zbek tilida frazeologizmdan foydalanish tabiiy o'zbekona jarangdorlikni yuzaga keltiradi.

2. Pu Sungling o'z asarlarida xitoy jamiyatidagi yovuzlik, adolatsizlikka asosiy sababchilar, zolim, kaltabin hokim va amaldorlardir, demoqchi bo'ladi. Ular qobiliyatli, aqilli odamlarni davlat imtihonlaridan yiqitib, noshud va ga davlat xizmatiga yo'l ochib berayotganligini, badiiy bo'yoqlar orqali ochib berishga harakat qiladi. U o'z asarlarida o'zgacha fantastik dunyo yaratadi. Uning qahramonlari ana shu fantastik dunyoga ravona bo'ladilar va ularga go'zal parilar duch kelib, baxt farovonlik ato etishadi. Haqiqiy hayotga g'ayrioddiy kuchlar qo'shiladi. Pu Sungling yaratgan fantastik dunyo inson ishlariga haqiqiy adolatli baho beradi. Yozuvchining fantaziyasi bilan yaratilgan ko'plab kuchlar qo'rqq, sotqin, yolg'onchilarni jazolab, o'qimishli, ezgu qalb egalari bilan haqiqiy tolibi ilmni, yuqori insoniy baxt, fazilatlar bilan ulug'laydi. Lyao Jay hikoyalarida asosiy qahramonlar sehrgar-rohiblar hisoblanadi. Muallifning ixtiyori bilan ular materiyaning bir shakldan boshqqa bir shaklga o'tishini, sehrgarlik sirlarini bilib, haqiqat va adolat tarafidagi odamlarga yordam berib, yovuz va zulmkorlarni jazolaydi.

Lyao Jay fikri bo'yicha, g'ayrioddiy ishlarni faqat sehrgar-rohiblar emas, balki adolatli va haqiqatgo'y, irodali va g'ayratli bo'lgan oddiy odamlar ham bajarishi mumkin bo'lgan.

III BOB. LYAO JAY NOVELLALARIDA MILLIY KOLORIT IFODASI.

3.1. Novellalarda milliy bayram, marosim va an`analarning berilishi.

Ma`lumki hech bir asar o`tmish manzarasini badiiy adabiyot singari ikir-chikirlarigacha batafsil aks ettira olmaydi. Shu ma`noda, Pu Sungling asarlari xitoy xalqlari hayotining in`ikosi, madaniy merosining ajralmas qismi, xitoy jamiyatida turli tabaqalar, hayoti va o`ziga xosliklari haqida fikr yuritishga imkon beruvchi manbalar manbaidir. Shunday qimmatli manbalarni bugungi kungacha yetib kelishiga hissasini qo`shgan muallif Pu Sungling, ijodi davomida ko`plab qisqa hikoyalari orqali xitoy an`analari xususiyatlarini deyarli o`zgarishsiz saqlab qolgan boy merosni ko`rgan va bilganlaridan foydalangan holda kelajak avlodga meros qilib qoldirgan buyuk shaxlardan biridir.

Umuman xitoyda qadimgi davrlardan boshlab turli bayramlarning kichik ko`rinishlarini novellalarda, xususan, Pu Sunglingning rivoyatlarida ham uchratishimiz mumkin bo`ladi.

M.X.Mahmudxo`jayev va J.T.Ziyamuhamedovlarning “Lyao Jay rivoyatlari” asarining birinchi qismidagi hikoyalarni tahlil qilar ekanmiz, unda xitoy an`analarining nozik jihatlari Pu Sungling tomonidan o`ta mohirlik bilan bayon etilgani va mualliflar tomonidan nozik did bilan so`z sehdan foydalangan holda tarjima qilingani hamda kitobxonga oddiy qilib tushuntirilib berilishini ko`rish mumkin.

Bevosita to`y marosimlaridan hisoblangan uylanish mavzusiga bag`ishlangan haqiqiy arxaiksyujet – mo`jizaviy (totem, hayvon) xotinlar, ba`zida esa nikoh ta`qiqini buzganlari uchun yo`qolib qolgan va ko`p sinovlardan so`ng qaytib kelgan erlar haqidagi asarlar syujetidir.

Pu Sungling asarlarida ham uylanishning nikohga bog`liq sinovlaridan oldin ro`y berishi va sinovlarga e`tibor ta`qiqlarga qaraganda kamroq bo`lganida payqash qiyin. Buning asosiy sababi, tulki ayolga, ilon ayolga, igna ayolga uylanish maqsadi bunday xotinning ishlab chiqarish qudratidan mahsulot (asal, madaniy o`simliklar va b.) tayyorlash ustasi sifatida foydalanishda namoyon

bo`ladi. Uylanish bu yerda aslida vosita, ko`pgina sehrli ertaklarda bo`lganidek, maqsad emas.⁶¹

III-VI asrlarda xitoy hikoyalarida bunday “beka”larning bir muddat o`zlarining xotin qiyofalarini yashirib yurishlarida namoyon bo`ladi. Jumladan, Gan Baoning “Ruhlar haqida qaydlar to`plami”da qush-xotin haqida hikoya mavjud.

“Bir yigit dalada patlardan kiyim kiygan qizlarni ko`rib qolibdi. Yigit ularni qush ekanini bilmay, bittasining ko`ylagini yashirib qo`yibdi. O`sha qiz unga xotin bo`libdi va unga uch o`g`il tug`ib beribdi. Biroq pat ko`ylagi yashirib qo`yilgan joyni aniqlagach, uni olib uchib ketibdi.”⁶²

“劳山道士” (“Laoshanlik rohib”) rivoyatida rohibning sehrgarlik kuchi yordamida ajoyib bayram o`tkazilgani, unda hamma shod hurram bo`lgani, shogirdlarning ustoz rohib may bilan siylagani, oy farishtasining ajoyib raqsi va oy farishtasining stol ustidagi kuaiziga aylanib qolishi yuksak mahorat bilan bayon etilgan.

“袖里姻缘” (“Yeng ichidagi nikoh ahdi”) rivoyatida Shang ismli o`qimishli odam va Xuy Ge o`rtasidagi muhabbatning boqiyiligi haqida va bunda Gung ismli rohibning mahorati juda chiroyli tarzda kitobxonga yetkaziladi.

Rohibning yaxshiligi va to`g`ri maslahatiga amal qilgan Shang oxir oqibat o`zi yoqtirgan muhabbatiga erishadi, bunda uning boylikka berilmagani, podshoning Surayyosining sog`ayishiga qo`shgan xissasi uni baxtga erishishiga sabab bo`ladi. Shuningdek, bu hikoyada rohibning dafn marosimi podshoh tomonidan amalga oshirilishi uning do`stiga bo`lgan hurmatini ifodalaydi.⁶³

Yoki “阿绣” (“A Shyu”) rivoyatida, Gaycho`ga mehmon bo`lib kelgan Liu Zigu kutilmaganda qalbida uyg`ongan muhabbatini asrab avaylashi, A Shyuning odobli qizlarga xos notanish yigitga nisbatan munosabati, ota-onaga hurmat milliy urf-odatlariga amal qilingan holda to`y marosimlarining amalga

⁶¹ J.T.Ziyamuhamedov. O`rta asr novellalari. Toshkent, 2010.-B.71.

⁶² O`sha manbaa. B.72.

⁶³ O`sha manbaa. B.36.

oshirilishini ezgulikning biror vositalari, xususan, “Tulki ruhi” orqali har doim yaxshilik qilinganini ko`rish mmukin.

“青 风” (“Ching Feng”) nomli rivoyatda qizning go`zal tarbiyasi va odobini namuna sifatida aytishimiz mumkin bo`ladi. Chyu Bing va Ching Fengning kutilmagan uchrashuvidan xabar topgan Ching Fengning tog`asi uni koyiganida, u odob bilan boshini egib uyga kirib ketadi. Qiz yigitning chin sevgisidan albatta xabardor bo`lsada uyidagilarga biror ortiq gap ayta olmaydi. Hattoki, “.... Chol ham qizning ortidan uyga kirdi. Shunda Chyu Bing yaqin orada cholning Ching Fengni so`kayotganini va haqoratlayotganini, Ching Feng esa, sekin yig`layotgan tovushini eshitdi, bunda Chyu Bingning yuragi rosa ezildi. Chyu Bing beixtiyor: Ayb menda, bu voqeaga Ching Fengning hech aloqasi yo`q. iloji bo`lsa uni kechiring, yo`qsa meni o`ldiring, men bunga loyiqman!”, - deb baland tovushda baqirib yubordi. Albatta ularning bu suxbatidan biror naf chiqmadi, biroq yigit qizni sira unuta olmadi, uning muhabbati kun sayin kuchayib faqat Ching Feng haqida o`ylay boshladi. Kunlardan bir kun yana tasodif tufayli, qizni uchtarib qolgan Chyu Bing uni aslida qiz emas, balki, tulki ekanligidan xabar topdi, biroq yigitning qizga bo`lgan munosabati, muhabbati o`zgarmadi. Shu tariqa ular birga hayot kechira boshladilar. Oradan yillar o`tdi. Yigitning oliyjanoblighi cholni fojeadan qutqarib qoldi. Ching Feng va chol o`rtasidagi suxbat, Chyu bingga bo`lgan munosabatini o`zgartirdi va ular yana eski joyda baxtli hayot kechira boshladilar.

Bundan ma`lum bo`ladiki, chiroyli hulqli bo`lish, odob bilan bamaslahat ish qilish natijasida foydali natijalarga erishish mumkin. Bu holatlarning Pu Sungling novellalarida nechog`lik o`zining isbotini topganligini ko`rish mumkin.

Xitoyda bayramlar juda ko`pchilikni tashkil qiladi. Ular ichida katta tayyorgarliklar bilan nishonlanadigan bayram bu “Bahor bayrami”dir.

Bu bayramning ilk ko`rinishlarini Lyao Jay rivoyatlari asari 1-qismidagi “A Bao” rivoyatida ham uchratish mumkin, unda “Ching Ming bahor bayrami”da qizlarning sayrga chiqqani haqida aytib o`tiladi. Albatta bu bayram bugungi kundagi Xitoyda nishonlanadigan “Bahor bayrami”dan farqli o`laroq aprel

oyining 4-6 chi kunlarida nishonlanadi. Bayram kunlari xitoyliklar mozorlarni tozalab, ota-onalarini eslashadi, qirlarga sayr qilib, tabiat quchog`ida bo`ladilar. Bu bayram biz o`zbeklarning hayit ayyomi va unda amalga oshiriladigan marosimlariga o`xshab ketadi.

Yoki asarda keltiriladigan “Qora chigirtka” rivoyatiga e`tiborni qaratadigan bo`lsak. Umuman xitoyda qadimgi davrlardan boshlab, turli bayramlarning kichik ko`rinishlarini novellalarda, xususan, Pu Sunglingning rivoyatlarida ko`plab uchratishimiz mumkin bo`ladi. Bunga min dinastiyasi davridagi imperator va saroy vazirlari o`rtasida tashkillashtiriladigan “chigirtka urishtirish” o`yinini misol qilib keltirishimiz mumkin. Bu o`yinni “majburiy ko`rinishda” amalga oshirishda oddiy xalq aziyat cheksada, lekin vaqt o`tishi bilan bu holat madaniy ko`rinish olib, bugungi kunda bayramlarning bir qismi sifatida kichik bir ko`rinishga aylanganini ko`rish mumkin.⁶⁴

Pu Sungling asarlarida madaniy tarqqiyot ne`matlarini qo`lga kiritish motivi, odatda dunyoga safar qilish bilan bog`liqdir. I degan qariya xitoy asotiri, garchi o`zga olamga safari haqidagi mifologik syujetning umumiy turi bilan o`xshash tomonlariga ega bo`lsada, Xitoy qahramoni Yevropa qahramonidan farqli o`laroq boshqa dunyoga, go`yo tasodifan tushib qoladi, u yerda birdan ayollar paydo bo`ladi (tadqiqotchilarning ta`kidlashicha bu haqidagi novellalarda ayollarning paydo bo`lishi o`z tub ma`nosini yo`qotib bo`lgan). SehrGAR xotin haqidagi hikoyalarning versiyalari ko`p bo`lib, ular arxaik tasavvurlarning g`ayritabiiy barqarorligini namoyish etadi.

Bu syujetlar asosida insonning homiy ruh bilan shahvoniy aloqasi mavzusi yotadi. “Beka” tanlab olgan nomzod, garchi uning oldiga tasodifan kelib qolganday ko`rinsa-da, aslida “beka” uni avrab chaqiradi.

Bir turga mansub syujetlarni tadqiq etish bir paytlar Xitoyda homiy-ruh va uning inson bilan munosabati haqidagi keng tarqalgan rivoyatlar qatlami bo`lganini tahmin qilish imkonini beradi. Avlodlarning bir turga mansub

⁶⁴ Bu haqda to`liq I.N. Bekmuratovning “Xitoy milliy bayramlari” asariga qarang.

syujetlarni taqqoslashi esa ularni semantik mohiyatini, shuningdek, dastlabki tuzilishini ahiqlash imkonini beradi.

3.2. Pu Sungling asarlarida geografik joy nomlarining aks ettirilishi.

Pu Sungling novellalarida voqealar rivoji xitoyning turli hududlarida va turli davrlarda ro'y beradi.

“八哥儿” (“To'tiqush rivoyati”)da Shanshi o'lkasining Jangju viloyatida bo'lib o'tgan voqealar rivoji o'zining aksini topgan. Unda bayon etilishicha, biro dam uzoq yillar davomida to'tiqush boqadi va kun kelib uzoq safarga otlanasi, shunda o'ziga qadrdon bo'lgan to'tiqushni ham birga olib ketishga qaror qiladi va shu tariqa asosiy voqealar rivoji boshlanadi. Masalan, xitoy tilida:

一次,这人外出办事,快到山西绛洲的时候,发现路费用完了.他很发愁,什么办法也想不出来,这时八哥说:....

(yi ci, zhe ren wai chu ban shi , kuai dao shan xi jiangzhou de shihou, faxian lu fei yong wan le. Ta hen fachou, shenme banfa ye xiang bu chu lai, zhe shi ba ge shuo...)

So'zma-so'z tarjimasi: “... bir safar, bu odam (davlatidan) tashqariga safarga chiqadigan bo'libdi, Shanshining Jangjusiga yetib kelganida mablag'I qolmaganini bilibdi. Bundan u juda qayg'uribdi, nima qilishni bilmay qolibdi, shunda to'tiqush debdi:”⁶⁵

Quyida M.X.Mahmudxo'jayev va J.T.Ziyamuhamedovlar tomonidan amalga oshirilgan tarjima bilan tanishamiz:

“...Kunlardan bir kun u yiroq safarga otlanibdi, to'tiqushni ham o'zi bilan birga olib ketibdi. Shanshi o'lkasining Jangju degan shahriga yaqinlashganida ularning hatto ovqatlanishga ham pullari qolmabdi. Bu ahvoldan ho'jayin

⁶⁵ M.X.Mahmudxo'jayev., J.T.Ziyamuhamedov. Lyao Jay rivoyatlari. B-29

qayg`u-hasratga tushibdi. Xo`jayinning hafaligini ko`rgan to`tiqush sekin so`z ochibdi:....”

Xitoy tilidagi “八哥儿” (“To`tiqush”) rivoyatidagi mazkur parcha M.X.Mahmudxo`jayev va J.T.Ziyamuhamedovlar tomonida o`zbek tiliga aniq tarjima qilinib, tarjima jarayonida mazmun va mohiyatni bizning tafakkurimizga moslash uchun qayta ishlov berib, kitobxon e`tiboriga havola etgan.

“Podsho hazratlari” rivoyatida bo`lib o`tadigan voqealar bevosita Xunan provinsiyasi harbiy gubernatori hamda podsho hazratlariga bog`liq bo`lib, mazkur Xunan provinsiyasi Xitoyning markazida joylashgan.

Rivoyatda nafaqat harbiy gubernatorning qing`ir ishlari, balki podsho hazratlarining ham kirdikorlari fosh qilinib, ular vijdon ixtiyoriga topshiriladilar. Shuningdek, Xan sulolasi vakillari xitoyda qanchalik hurmat e`tiborga sazovor ekanliklariga ham urg`u beriladi. Xan sulolasi Xitoyda miloddan avvalgi 206 yildan milodning 221 yiligacha hukmronlik qilgan sulolalardan bo`lib, bugungi kunda ham Xan millatilik xitoylar boshqa mayda millatlarga qaraganda eng yuqori o`rinda turadilar. Hattoki ularning kiyinishlari ham boshqa mayda millatga tegishli bo`lgan xitoylikdan keskin farq qilgan. Xunan provinsiyasida yashovchi xan millatlik xitoylar, podsho hazratlarini qing`ir ishlarini fosh etish maqsadida o`ta uddabironlik bilan harakatlanadilar va podsho hazratlarini mot qilishga erishadilar. Podsho hazratlarining ochko`zligi, ziqnaligi va amal kursidan o`z manfaati yo`lida foydalanganligi kun kelib o`zining harob bo`lishiga sababchi bo`ladi.

“Laoshanlik rohib” rivoyati⁶⁶da Xitoyning ulkan tog`laridan biri tilga olinadi. Tog` nomini so`zma-so`z tarjima ilinganda “qari+tog`”, - aynan “qari tog`” deb emas, balki “ulkan tog` deb tarjima qilinsa, birmuncha maqsadga muvofiq bo`lar edi. Rivoyatda rohiblarni chin ma`noda yuksak darajaga erishishlarida mazkur tog`ning ahamiyati katta, shogirdlar ustozlari bilan shu tog`da turli mashqlarni bajarib, ruhan va jismonan tayyorgarlik qiladilar. Vang Cheng ismli shaxs ham aynan shu tog`ga kelib, yetuk rohib bo`lib yetishishga maqsad qiladi, ustozlari

⁶⁶ O`sha manbaa. B.36.

singari ko`z ko`rib quloq eshitmagan mt.o`jizalarni qilib ko`rishni orzu qiladi, biroq uning dangasaligi natijasida kutilgan natijaga erisha olmay yaqinlari oldida uyatga qoladi.

“武 孝 廉” (“Harbiy unvonli magistr”) rivoyatida amaldorlik lavozimini sotib olishga shaylangan harbiy unvonli magistr amaldorlik kursisini sotib olish uchun xitoyning boshqa bir hududidan poytaxtga yo`l oladi. U Djou shahriga kelgach kutilmaganda og`ir betob bo`lib qoladi, voqealarning asosiy boshlang`ich nuqtasi aynan Djou hisoblanadi. Qadimdan har bir amaldorlikka davogar shaxs bir qator imtihonlardan o`tishi va o`sha davr talabiga binoan belgilangan mablag`ni to`lash evaziga amaldorlikni qo`lga kiritish mumkin bo`lgan. Aynan mana shu kabi imtixonlar xitoyning poytaxtida amalga oshirilgan. O`ziga berilgan imkoniyatdan unumli foydalana olmagan magistr natijada barcha qo`lga kiritganlarini yo`qotdi.

Yoki “蟋 蟀” (“Qora chigirtka”) rivoyati⁶⁷da voqealar Xuain uyezdida bo`lib o`tadi. Mazkur hudud aholisi saroy a`yonlari va amaldorlari tomonidan qo`yilgan talabni amalga oshirish uchun qancha qiyinchiliklarni boshdan kechiradilar. Shuningdek, mazkur rivoyatda xitoyda qadimdan mavjud bo`lib kelgan unvonlar haqida ham qisman to`xtalib o`tiladi. Masalan: Shyu say unvoni taqdim qilinadigan unvonlarning dastlabki darajasi hisoblanib, hattoki shu unvonga ega bo`lish uchun kishilar bir necha bor imtihonlardan o`tishi va qator qiyinchiliklardan boshdan kechirishiga to`g`ri keladi.

Pu Sungling Lyao Jay rivoyatlarining o`zbek tilidagi tarjimasini o`rganar ekanmiz, bu novellalarda geografik joy nomlari aytarliq darajada ko`p keltirilmaganligiga guvoh bo`lamiz, shunday bo`lsada, Pu Sungling tomonidan bayon qilinadigan novellalar xitoyning deyarli barcha hududlariga aloqador hisoblanadi.

Yuqoridagilardan tashqari mualliflar M.X.Mahmudxo`jayev, J.T.Ziyamuhamedov va D.M.Qodirovalarning “Sharq adabiyoti janrlari (Xitoy

⁶⁷ O`sha manbaa.B-92.

xalq masallari) to'plamida ham bir qator geografik joy nomlari tilga olinadi. Masalan: "Uy qursang zamini mustahkam bo'lsin"⁶⁸ deb nomlangan masalda Janubiy Xitoyda Men Szyu nomli qushning patlari va tolalarini birlashtirib, qamish boshiga uya qurgani va noqulay obi havoda uyaning yerga qulab undagi qush poloponlari nobud bo'lgani haqida voqea bayon etiladi. Bundan xulosa qilish mumkinki, Janubiy Xitoydagi bu qush shunchaki vosita bo'lib, kishilarga biror ish qilinsa albatta o'z o'rniga qo'yib bajarish maslahat qilinadi. Uy qurishda ham albatta bu joy uy qurishga loyiqmi, keyinchalik kishilarni turli muammolar tinch yashashiga halaqit berib oromini buzmaydimi degan savollarni qo'yishni uqtiradi.

"Haqiqat egiladi, ammo sinmaydi"⁶⁹ masalida bo'ladigan voqealar Chu tog'idan topilgan qimmatbaho tosh haqida bo'lib, Xe Chji ismli kishi uni topib oladi va o'sha davr podshosi Lyaga olib boradi. Podshoning odamlari toshni qimmatbaho emas deb ma'lum qilishganida Xe Chji bir oyog'idan ajraladi, keyinchalik ikkinchi oyog'idan ajraladi. Navbatdagi shox taxtga o'tirganda Xe Chjining aslida yolg'onchi emasligi ma'lum bo'ladi. Xe Chji oyoqlaridan ayrilgan bo'lsada, biroq haqiqat ro'yobga chiqishi uchun ortga qaytmasligini isbotlaydi.

"Mahsulotning sotilishi uning o'ramiga ham bog'liq"⁷⁰ masalida Chu va Jin xonliklaridagi savdogarlarning ta'rifiga bag'ishlangan. Jin xonligi 376 yilgacha xitoyda mavjud bo'lgan xonlik.

Masalda bayon etilishicha savdogarning nafaqat sotmoqchi bo'lgan buyumlari, balki bu buyumlar solingan yoki o'ralgan qutilar ham bejirim bo'lishi lozimligi uqtiriladi. Ya'ni kamtarona mehnat va arzon xom-ashyolardan go'zallik yaratish evaziga boyish mumkinligi aytiladi.

⁶⁸ M.X.Mahmudxo'jayev., J.T.Ziyamuhamedov va D.M.Qodirovalarning "Sharq adabiyoti janrlari (Xitoy xalq masallari)". Toshkent, 2005.- B.9.

⁶⁹ O'sha manbaa. B.10.

⁷⁰ O'sha manbaa .B.15.

“Qing`ir ishning qiyig`i qirq yildan keyin ham chiqadi” masali Jian Ju viloyati Fu Ching uyezdilik bakalavr Ching Shubu haqida bo`lib, uning aql bilan yurgizgan siyosati, tez va kerakli natijalarni beradi.

“Birovga choh qazisang, o`zing tushasan”<sup>71</sup> masalida U knyazligi va Chu davlatining keskin munosabatlari natijasida uchinchi bir raqib foydalanmasligi uchun berilgan kerak maslahat natijasida xalqni katta talofatdan qutqarib qolingani bayon qilinadi. Bu holat quyidagicha ifodalaniladi: “.... Bog`ning o`rtasidagi daraxtda bir chigirtka bor, u eng baland shoxga qo`nib olgan. U ovozi boricha kuylayapti, biroq o`zining orqasida beshiktervatarni ko`rmayapti. Beshiktervatar oyoqlarini juftlashtirib, chigirtkani tutishga hozirlanmoqda, lekin ko`rmayaptiki, yonginasidagi chumchuq beshiktervatarni ov qilishga tayyor turibdi.....” mualliflar bu masal orqali kishilarning o`ylamay ish qilishining natijasida nafaqat o`zi balki butun bir xalqi ziyon ko`rishi mumkinligi aytmoqchiligini ko`rish mumkin.

M.X.Mahmudxo`jayev, J.T.Ziyamuhamedov va D.M.Qodirovalar tomonidan kitobxon e`tiboriga havola qilingan mazkur “Sharq adabiyoti janrlari (Xitoy xalq masallari)” ilmiy ommabop asarda Xitoy xalqining ming yillardan beri saqlanib kelayotgan o`rta asr xitoy masallaridan 52 tasini, ba`zi birlarini bizning tafakkurimizga moslash uchun qayta ishlov berib, birinchi marotaba o`zbek tilida kitobxon e`tiboriga havola etiladi. Asarda berilgan masallarning hammasida ham geografik joy nomlari ko`rsatilmagan bo`lib, mazkur tadqiqot ishida o`sha 52 ta masaldan ayrimlarini, ya`ni faqat joy nomlari keltirilganlarini misol sifatida keltirib o`tdik. Biroq, Xitoy masallarining paydo bo`lishi ko`hna Xitoy tarixiga borib taqaladi va ularda sodir bo`ladigan voqealar butun nafaqat Xan millatiga balki Xitoy hududida istiqomat qiladigan barcha millatlarga tegishli bo`lib, ular masal pand-nasihat, o`git uslubida yozilgan, achchiq haqiqatni ma`joziy shaklda ifodalovchi janr ilgari suriladi.

Mazkur bandni yozishda J.T.Ziyamuhamedovning “Lyao Jay rivoyatlari” to`plamida keltirilgan rivoyatlaridan faqat 5 tasinigina o`rganib tahlil qilishga

⁷¹ O`sha manba .B.22.

harakat qildik. Har bir rivoyatda aynan mavzuimizga tegishli joylarini xitoy tilidagi variantini oldik va soʻzma-soʻz tarjimasi hamda muallif J.T.Ziyamuhamedovning tarjimasini berib bordik. Shuningdek, mualliflar M.X.Mahmudxoʻjayev, J.T.Ziyamuhamedov va D.M.Qodirovalarning “Sharq adabiyoti janrlari (Xitoy xalq masallari)” toʻplamidan geografik joy nomlari ishtirok etgan 6 ta masalni ham misol tariqasida koʻrib chiqishga muvaffaq boʻldik. Yuqoridagi 11 ta rivoyat va masallarni bu koʻrinishda tahlil qilish orqali, har qanday xitoy masal-novellasi, masal-hikoyasi, rivoyati yoki frazeologik iboralarni duch kelgan kishi oʻqib tushunish imkoniyatiga ega emasligini guvohi boʻldik. Bu holatni hattoki J.T.Ziyamuhamedov qalamiga mansub “Oʻrta asr novellalari” asarida keltirilgan jumlar orqali izohlashimiz ham mumkin. “Toʻplamda bir qator hikoyalar, ularda davlat arboblari jazmanlarining nomlari tilga olingani yoki xitoy xalqining qahramonona kurashi voqealari shama, imo-ishora tarzida boʻlsa-da, aks ettirilgani uchun, umuman, chiqarib tashlangan, jumladan, imo-ishora tarzida qizil iyerogliflar – 25 iyeroglifdan iborat qisqagina qayd yaqin kelajakdagi oʻzgarishlarga ishora deb tushunilgan.

Bosqinchilarning yaxshiyliklari ixcham, ammo yaqqol aks ettirilgan “Xabarchi shaytonlar”, “Kichik tobutlar”, “Jan oilasiga mansub ayol”, “Gʻalayonlar paytidagi ayriliq” va boshqa hikoyalar esa toʻplamdan umuman chiqarib tashlangan edi.

Shuni taʼkidlash lozimki, Manjurlarga qarshi kayfiyat senzura oʻtkazmagan hikoyalarda emas, maʼqullaganlarining koʻpchiligida ham mavjud boʻlib, ulardagi mahfiy maʼnoni senzurlar nazardan qochirgan yoki tushuna olmaganlar”.⁷²

Yuqoridagilardan maʼlum boʻlishicha, har doim ham xitoy novellalari duch kelgan kishiga tushunarli boʻlgan deb boʻlmaydi. Bu novella, masallarni va boshqalarni albbatta mohir tarjimon koʻmagida, ijodkor aslida nima demoqchiligini, aniq fahmlash mumkin.

⁷² J.T.Ziyamuhamedov. Oʻrta asr novellari.- Toshkent,2010.- B.23.

Xitoy masallari “Chung-chu” va “Janggo” davrida, ya`ni miloddan avvalgi VII-III asrlar yashagan ko`pgina ma`rifatparvar shoirlarning ijodlarida namoyon bo`lganligi ma`lum. Masalan, miloddan avvalgi 372-289 yillarda yashagan faylasuf Meng Zi o`zining ijodida “Qosh qo`yaman deb ko`z chiqarmoq” degan iborani keltirar ekan, ayrim sub`yektiv me`yorlarga bo`ysunmagan. G`arbiy Han imperiyasi davrida yozilgan badiiy asarlardan biri – “Huainan bolalari nomli hikoyalar to`plamlarida “Qulog`ini yopib, gunohini yashirmoq” masali keltiriladi. Bu masalda boylik orqasidan es-hushini yo`qotib qo`ygan, o`zi va boshqalarni aldaydigan nodon, joxil shaxslarning harakatlari tanqid qilinadi.” Umuman xitoy novellalarida, masallari va rivoyatlari qahramonlar orqali xalqning dardi ifodalanadi.

III bob bo'yicha xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Pu Sungling ijodi ko'p asrlik ulkan adabiy merosga ega bo'lgan xitoy adabiyoti tadrijiy taraqqiyotining yorqin namunasidan iboratdir. Yozuvchi asarlarining mavzu doirasida va ifoda uslubi ham shundan dalolat beradi.

Pu Sungling ijodida davr, turmush tarzi va urf-odatlrning qamrov ko'lamini kengligi jihatidan, Pu Sungling bilan yonma – yon qo'yishga loyiq bo'lgan birorta zamondosh yoki ungacha o'tgan yozuvchini toppish amri mahol. Shu sabab, o'zbek kitobxonini xitoy novellasi asarlari bilan tanishtirish ulkan estetik zavq bag'ishlaydi.

Pu Sungling har bir rivoyatini bayon etar ekan, unda asosiy qahramonlar, yoki ilmi shaxslar, sehrigar rohib, tulki ruhidagi ayollar yoki qizlar va h.k.lar orqali, milliy urf odatlar, bayramlarning kichik ko'rinishlari, an'analar va marosimlarga bo'lgan e'tiborni kitobxonga yetkazadi. Novella bilan tanish orqali qadimgi davrlarda ham bu an'analarning nechog'lik bugungi kun bilan mos kelishi, tarbiyaviy ahamiyati o'zining qiymatini yo'qotmaganligini ko'rish mumkin.

Bir so'z bilan aytganda, Pu Sungling (Lyao Jay) o'z asarlariga xizmat qilgan ilk manbalardagi motiv va syujetlarga badiiy sayqal berib yanada mukammalroq tarzda keyingi avlodlarga yetkazganligi, o'ziga xos uslub va personajlar yaratganligi hamda Xitoy adabiyoti tarixida g'ayrioddiy, mo'jizaviy novellalar yaratishdagi o'ziga xosligini ham mazmun, ham shaklda namoyon etganligini ko'rsatadi.

XULOSA

Badiiy tarjima nazariyasining o'ziga hos ijodiy xususiyatga ega ekanligi va tarjimonga har qanday hollar uchun bab-barobar muvofiq kelaveradigan tayyor retseptlar bermasligi uning mustaqil fan ekanligiga hech bir tariqa rahna sola olmaydi. Tarjima asarlar juda qadimdan xalqlarning ijtimoiy , ma'naviy-estetik rivojlanishi uchun xizmat qilib kelgan . Olimlar , tarixchilar , shoir va adiblar boshqa tillarda yaratilgan intellektual mulkni o'z xalqining ziyo ahliga yetkazish uchun mexnat qiladilar.

O'zbek tarjimonlari to'plagan tajriba o'zbek adabiy tili rivojlangan va katta imkoniyatlarga ega bo'lgan boy til ekanligi , unda har qanday murakkab , chuqur ilmiy fikr va go'zal badiiy shaklni ifodalash uchun zarur bo'lgan hamma vositalar mavjudligini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda hozirda tarjimachilik faoliyati tobora rivojlanmoqda . O'zbek sharqshunoslari va tarjimonlari halqaro ilmiy anjumanlarda faol ishtirok etib kelmoqdalar . Ular jahon sharqshunoslik ilmiy markazlari bilan uzviy aloqada –sharq va g'arbning qo'lyozmalar xazinalari bilan nodir asarlar nashrlarini ayirboshlash va boshqa ilmiy munosabatlar yo'lga qo'yilgan .

Adabiyotimizga yangi mavzu , janrlar , usul va shakllar kirib keldi . Albatta , bunda tarjimachilik sohasi katta ahamiyat kasb etmoqda.

Kolorit deganda tasviriy san'atda real hayotni haqqoniy aks ettirish uchun ishlatiladigan ranglarning o'zaro mutanosibliigi tushinilsa, milliy kolorit deganda esa, badiiy asarda aks etgan milliy xususiyatlar yig'indisiga aytiladi. Shu ma'noda biz Xitoy millatining ma'naviy faoliyati va moddiy hayotidagi o'ziga xosliklarni, kishilarni xarakteri, tafakkur tarzi, ruhiyati, intilishlari, qiliqlari, yumor xususiyatlari, moddiy hayotidagi urf-odat, rasm-rusm, marosimlar, kiyimlar, uy-ro'zg'or anjomlari, cholg'u asboblari, pazandachilik, ismlar va hakazolarni o'rganish maqsadida, Xitoy tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan asarlarda milliy koloritning berilishini tadqiq etishda bir qator vazifalar mavzuini yoritish uchun maqsad qilib olindi. Xususan, asosiy manba sifatida

dots. M.X.Mahmudho'jayev va dots. J.T.Ziyamuhamedovlar tarjimasidagi "Pu Sungling. Lyao Jay rivoyatlari" to'plami olingan bo'lib, mualliflarning mazkur tarjimasida milliy koloritning qayta yaratilishini o'rganish uchun quyidagi qator vazifalar ishimizda imkon qadar yoritildi.

"Lyao Jay asarlarining o'zbek tiliga tarjimai" bobini o'rganishda Pu Sunglingning hayoti va ijodi haqida, Lyao Jay xitoy adabiyotida tutgan o'rni hamda Lyao Jay asarlarining tarjimai dots. Ziyamuhamedov J.T.ning monografiyalari, "Xitoy novellistikasi va Pu Sungling asarlarining o'rganilishi" nomli maqolalari, "Lyao Jay rivoyatlari (Xitoy adabiyotidan xrestomatiya)" nomli asarlari yordamida yoritildi;

Manbalar asosida mavzu o'rganilganda Pu Sungling XVII-XVIII asr boshlari xitoy adabiyotining ulkan namoyondalaridan biri hisoblanib, uning turli janrlarda yaratilgan boy ijodiy merosi ushbu davr xitoy adabiyotining yuksalishiga ulkan xissa qo'shganligi ma'lum bo'ldi;

Pu Sunglingning manjur – Ching monarxiyasi davrida xitoyda hukm surgan shavqatsiz senzura sharoitida yyaratilgan asarlar ushbu davr xitoy xalqi hayotining haqqoniy manzarasini yaratishga xizmat qilganligi ma'lum bo'ldi;

Lyao Jayning ijodi haqidagi ma'lumotlarning kamligi ham aslida uning asarlari senzura ma'qul bo'lmagani va u haqda "indamaslik" siyosati yurgizilganining belgisi bo'lganligi aniqlandi;

Lyao Jay asarlarida ijodkorning yashirin "men"i muayyan darajada aks etib, uning hukmron sulolaga qarshi munosabati, ayniqsa, xitoy xalqining bosqinchilarga qarshi kurashi, amaldorlarning sotqinliklari tasvirlangan asarlari "g'azabi qaynagan vatanparvarning ovozi" sifatida yangragani ma'lum bo'ldi;

Pu Sungling ijodi ibratomus, sodda va istehzoli ko'rinishda bayon tarzida amalga oshirilganligi tahlil qilindi;

Pu Sungling ijodi o'rganilar ekan, uning asarlarida manjur bosqinchilariga qarshi kurashga yashirin ishora borligi ma'lum bo'ldi;

Shuningdek, Pu Sungling novellalari tom ma'noda jamiyat tanqidi hisoblanib, tadqiqotchilar adibning "Lyao Jayning g'aroyib hikoyalari" to'plamini bir qator turkumlarga ajratib tadqiq etishgan. "Ga'aroyib hikoyalar"dagi ko'plab umumlashma obrazlar, hayotiy yohud afsonaligidan qat'iy nazar, jamiyat tanqidining turli jihatlari tasviriga xizmat qiladi. Yana o'ziga xosliklardan biri, an'anaviy syujetlar talqinidagi muallif xotimalarida muallifning o'z ovozi baralla yangraydi va ularni yetarli adabiy tayyorgarligi bor kitobxongina tushuna oladi. Shuningdek ular, qo'shimcha hikoya, yangi novellalarni o'z ichiga olishi aniqlandi;

Tadqiqot ishini yozish jarayonida olimlarning umuman "kolorit" terminiga bergan ta'riflarida har doim ham ularning fikrlari bir biriga mutanosib kelavermasligi ma'lum bo'ldi va bu qarashlar ishimizda o'z aksini topgan;

Ma'lumki, badiiy tarjimachilikda milliy kolorit tushunchasi bizga begona, noma'lum bo'lgan xalq, elat xayot tarzi, urf- odatlari, umuman olganda, milliyliigi tushuniladi. Tadqiqot ishimizda "Lyao Jay rivoyatlari" asarida keng ifodasini topgan barcha bizga yot bo'lgan, xitoy xalqining xayot tarziga tegishli marosimlar, yeguliklar, kiyim-kechak va boshqalarning o'zbekcha tarjimada berilishi chuqur o'rganishga harakat qilindi va magistrlik ishi doirasida bu maqsadga erishildi;

"Lyao Jay rivoyatlari" ("Pu Sungling") asarining qiyosiy tahlili jarayonida, asar tarjimasida milliy koloritga oid so'zlarni transliteratsiya va muqobil variant bilan o'girilganligining shohidi bo'ldik. Ushbu jarayonda ba'zi bir tushunchalarning xalqimiz tiliga singib ketganligi sababli ularga izohning hojati yo'qligiga amin bo'ldik. Shuningdek, ba'zi bir tushunchalar izohli tarjima bilan keltirilgan, ba'zilar esa matn osti havolasida tushuntirib ketilgan. Ammo ba'zi bir tushunchalar izohsiz qolganligi sababli o'zbek kitobxoniga tushunarsiz bo'lib qolgan deb xisoblaymiz.

Ishda milliy xos so'zlarning transliteratsiya yo'li bilan tarjimada berilishining asosiy sababi – asliyatda qo'llanilgan milliy xususiyatli til

vositalarining tarjima tilida mavjud bo'lmaganligidir. Shu sababli ushbu asar tarjimasi davomida uchragan milliy koloritni aks ettiradigan milliy xos so'zlar tahlil qilindi;

Tarjimashunoslikda eng murakkab jarayonlardan biri frazeologizmlar tarjimasi hisoblanganligi sababli, mazkur ishda bir qator frazeologik birliklar o'rganib tarjima qilindi va quyidagilar aniqlandi:

Frazeologik birikmalarni oddiy so'z birikmalaridan ajratishda ularning to'rt asosiy belgisi quyidagilar ekanligi ma'lum bo'ldi. ular:

- frazeologik birikmalarning ma'lum bir model asosida yasalmasligi;
- ko'chma ma'noda ishlatilishi;
- turg'unligi;
- ikki yoki ko'p mustaqil so'zlardan yasalishi"⁷³ ma'lum.

Shunidek, frazeologik birliklarni tarjima qilishning o'ta murakkab amaliy jarayon ekanligi asosan mazkur birliklarning leksik, semantik va qurilish jihatlaridan murakkabligiga bog'liqligi ma'lum bo'ldi;

Bundan tashqari, talay frazeologizmlar milliy hususiyatga ega bo'lib, bu hol tarjimonlarga qiyinchiliklar tug'dirishi ishni yozish jarayonida ma'lum bo'ldi;

Tadqiqotimiz davomida ikki tilda ham mavjud bo'lgan ko'pgina frazeologik birikmalarni o'rganib, o'zbek tilining nihoyatda boyligi va purma'noliligi hamda tarjimonlarning mahorati ushbu tarjimalarda yaqqol ko'zga tashlanishini guvohi bo'ldik, chunki xitoy tilida oddiy so'z bilan berilgan ko'pgina jumalarni tarjimon mahorat bilan o'zbek tilida mavjud frazeologik iboralar bilan almashtirib, ma'nosiga mos iborani topib o'rnida qo'llay olganliklari ma'lum bo'ldi;

Har bir til frazeologik zahirasi tarkibida xalq hayotiga mansub ijtimoiy – tarixiy voqea-hodisalar, ahloqiy va ma'naviy–madaniy me'yorlar, ruhiy holatlar, diniy tasavvur, milliy an'ana va urf-odatlar o'z aksini topganligi ma'lum bo'ldi;

⁷³ Badiiy tarjimaning aktual masalalari. Toshkent : FAN, 1977, 62-bet

Xitoy, o'zbek xalqlarining urf- odatlari o'xshash bo'lmaganligi tufayli to'g'ridan – to'g'ri tarjima qilinmasdan ularning ekvivalentlari beriladi. Agar oddiy bir iborani misol qilib oladigan bo'lsak, 拔苗助长 (ba miao zhu zhang)⁷⁴ iborasini o'zbek tiliga so'zma- so'z tarjima qilsak, "Maysaning tez o'sishi uchun, maysani tortib, o'sishiga yordam bermoq" degan ma'no kelib chiqadi. Uning o'zbekcha ekvivalenti: "Qosh qo'yaman deb ko'z chiqarmoq" dir. Bu kabi misollar ishiz davomida ko'pkab keltirildi va ularning tarjimasi tahlil qilindi. Iboraning to'liq ko'rinishi, ya'ni kelib chiqish tarixi ishizmida keltirildi;

Albatta, har bir tarjima muayyan kamchiliklardan holi emas, ammo har bir tarjima tagida og'ir mexnat va uyqusiz tunlar mavjudligini esdan chiqarmagan holda tarjimonning amalga oshirgan mexnati tahsinga loyiq deb hisoblaymiz.

⁷⁴ 汉乌俄成语词典-xitoycha-o'zbekcha-ruscha frazeologik lug'at.
T.Akimov, J.K.Kiraubayev. Toshkent-2002

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari ro`yxati:

1. Karimov I.A. Adabiyotga e`tibor – ma`naviyatga e`tibor. – T.: O`zbekiston, 2009. – 40-b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. – T.: ma`naviyat, 2008. 176-b.
3. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. – T.: O`zbekiston, 2000. 8-jild. 528-b.
4. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz. – T.: O`zbekiston, 1999. 7 – jild. – 410-b.
5. “Inson baxt uchun tug`iladi”. O`zbekiston Prezidenti I.A. Karimovning hikmatli so`zlaridan. Toshkent. Sharq nashriyoti>1998y.
6. Karimov I.A. Ma`naviy yuksalish yo`lida. – T.: O`zbekiston, 1998.-160 b.
7. Karimov I.A. O`zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O`zbekiston, 1998. 686-b.
8. Karimov I.A. O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – T.: O`zbekiston, 1996. 1-jild. 364-b.

Xitoy tilidagi manbalar:

1. 中国文化 . 北京 , 2004 年 1 月 , 189
2. 汉 乌 俄 成 语 词 典 -xitoycha-o'zbekcha-ruscha frazeologik lug'at. T.Akimov , J.K.Kiraubayev . Toshkent-2002
3. 精选 汉 俄-俄 汉 词 典-Краткий русско-китайский и китайско-русский словарь .1988 г. Пекин .
4. 中国 成语 大 词 典 . 1986 年 4 月

5. 汉语成语词典. 上海 1986 年
6. 现代汉语. 北京. 1986 年

O`zbek tilidagi adabiyotlar:

1. E.Ochilov. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. T., 2012.
2. Liao Zhai (Pu Sungling) novellalari .// (Xitoy adabiyoti bo'yicha hrestomatiya) T.; Muharrir, 2012. (Hammuallif : Z.Shamshiyeva) 4-bet.
3. Сирожиддинов. Ш., Одилова Г., Бадий таржима асослари, Тошкент, “Мумтоз сўз”, 2011.
4. Dots. J.T. Ziyamuhamedov “O`rta asr xitoy novellalari” T.; ToshDSHI nashriyoti, 2010, 12-bet.
5. Sultanov D. She`r va tarjima. Samarqand. 2009.
6. Xolbekova B. She`riy tarjima mezonlari //Jahon adabiyoti. 2009. №11.
7. Mo`minov O., Turg`unov R., Rashidova A., Alimova D., - Translation – Yozma tarjima – Pismenniy perevod (Писменный перевод). T., 2008.
8. G`afurov I. Tarjimashunoslik mutaxassisligiga kirish. T., 2008.
9. O`rmonova N.M.Tarjimada tarixiy – arxaiik leksikani aks ettirish prinsplari va tarjima aniqligi. Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. T., 2008.
10. Sharqshunos olimlari ayollarning ilmiy to`plami. T.: ToshDSHI. 2007.
11. Dots. Ziyamuhamedov J., Xolboyev B. Tan davri novellalari. –T., 2006.
12. O`zbek tilining izohli lug`ati. Ikki jildlik. 1-jild.– T.: 2006.
13. Mustaqillik davri adabiyoti. Adabiy – tanqidiy maqolalar, badialar. – T.: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.
14. Sharq filologiyasining tugun va yechimlari. T.: ToshDSHI. 2006.
15. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. O`zbekiston Respublikasi: Fan, 2005.9-bet.
16. Dots. Mahmudxo`jayev M., dots. Ziyamuhamedov J., Qodirova D. Xitoy xalq masallari. T., 2005.
17. Umirov X. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004.

18. O`zbek tilining izohli lug`ati. Ikki jildlik. 1-jild.– T.: 2004.
19. Dots. Mahmudxo`jayev M ., dots. Ziyamuhamedov J. “Lyaojay rivoyatlari” (1 va 2 qism) –T.2004.
20. J.Ziyamuhamedov, M.Mahmudhodjayev. Pu Sungling .“Lyao Jay rivoyatlari” .T.;ToshDSHI nashriyoti, 2003, 3-bet.
21. Pu Sungling. Lyao Jay rivoyatlari //”Jahon adabiyoti”, 2003, 8-bet.
22. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asarlari. T.: O`zbekiston. 2002.
23. Rahimov Z. Romanda syujet qurilishi.//Til va adabiyot ta`limi. – T., 2002. № 6.
24. Komilov N. Tafakkur karvonlari. T.: Ma`naviyat, 1999.
25. Komilov N. Tafakkur yoki komil inson ahloqi. T.: Yozuvchi, 1996.
26. Xudoyberdiyeva E. Adabiyotshunoslikka kirish. T.: 1995.
27. Umurqulov B. Badiiy adabiyotda so`z. T., Fan. 1993.
28. Javbo`riyev M. Tarjimada tarixiy davr koloriti. // Tarjima muammolari. 2-kitob. 120-b.
29. Soipov M. Tarjimada milliy o`ziga xoslikni qayta yaratish. // Tarjima muammolari. 2-kitob. 72-b.
30. Boltaboyev H. Nasr va uslub: Uslub muammosiga nazariy nigoh va hozirgi o`zbek nasrida uslubiy izlanishlar. T.: Fan. 1992.
31. Adabiy turlar va janrlar. – T.: “Fan”. 1991. 1-jild.
32. Abduazizova A. Tillar olamiga sayohat. – T.: 1988.
33. Olimov S. Ilmiy tarjima murakkabliklari. //Tarjima san`ati. 6-kitob. – T., 1985.
34. Tarjima nazariyasi asoslari. G`Salomov. T.:1983.
35. Sultanova M. Peyzaj san`ati. Hozirgi o`zbek tarixiy romanlari miisolidida – T.: Fan, 1983. – 81 b.
36. Jo`rayev T. Tarjima san`ati – T.: Fan nashriyoti, 1982. – 59 b.
37. Hamroyev H. Milliy xos so`zlar – realiyalar va badiiy tarjima // Tarjima madaniyati (Maqolalar to`plami). – T.:, 1982. 158-b.
38. O`zbek tilining izohli lug`ati. Ikki jildlik. 1-jild.– M.: 1981.

39. O`zbek tilining izohli lug`ati. Ikki jildlik. 2-jild.– M.: 1981.
40. Nosirov O`.N. Ijodkor shaxs, badiiy uslub, avtor obrazi. T. Fan. 1981.
41. Tarjima nazariyasi masalalari. Ilmiy ishlar to`plami. T.: TDU., 1979.
42. Sulton Izzat. Adabiyot nazariyasi. 2-jild. T.: Fan. 1979.
43. Hazratqulov M. Uslub va tarjima haqida ba`zi kuzatishlar. // Tarjima san`ati. 4-kitob. – T. 1978.
44. Badiiy tarjimaning aktual masalalari. Toshkent : FAN, 1977, 62-bet.
45. Komikov N. Bu qadimiy san`at// Tarjima san`ati (Maqolalar to`plami). 3-kitob. – T.: 1976.
46. Musavey K. Badiiy tarjima va nutq madaniyati.– T.: O`qituvchi nashriyoti, 1976.
47. Egamova Y. Tarjimada personajlar nutqidagi jonli til elementlarini aks ettirish masalasi. // Badiiy tarjia – do`stlik quroli (Maqolalar to`plami). – T., 1974.
48. Fayzullayeva R. Yo`llar yiroq, ko`ngillar yaqin// Tarjima san`ati (Maqolalar to`plami). – T.: 1973.
49. Pu Sungling tarjimai holi .- 1970. B.23
50. Adabiyotshunoslik terminlari lug`ati.– T.: 1967.
51. G` .Salomov. Til va tarjima . Toshkent: FAN,1966, 262-bet.
52. J. Sharipov. O`zbekistonda tarjima tarixidan. – T.: “Fan”, 1965;
53. O'zbekistonda tarjima tarihidan . J.Sharipov. O'zbekiston. Fan.:1965
54. Pu Sungling hayoti yilnomasi. I, II – Pekin 1962;.
55. Alekseyev V .M . “Lisyim goram” kitobiga so'zboshi // Kitayskaya klassicheskaya proza. –M., 1958. B.4-6.

Rus tilidagi adabiyotlar:

1. J.Ziyamuhamedovning “Язык , культура и общество на перекрёстке цивилизации” mavzusidagi halqaro konferensiya materiallari asosida chop

etilgan “Труды и материалы” to’plamidagi “Литературные связи Японии и Китая” nomli maqolasi. Toshkent-Sukuba .2006.131-bet.

2. Крупчанова Л.М. Введение в литературоведение. М.: ОНИКС, 2005.

3. Пуставойт

4. Мухтаров Т.А., Ходжаева Р.У. Традиция и современность. – Т.: 1999.

5. Комиссаров В.Н. «Общая теория перевода».М., 1999.

6. Китайско-русский словарь. Пекин , 1992 г

7. Рассказы о светильнике. Китайская новелла XI-XVI вв. М., «Наука». 1989. П.Г. Слово и стиль в создании образности. // Вестник Московского университета. Серия 9 – филология. – Москва, 2002. №3.

8. Морозов М.М. Пособие по переводу. – М., Иностранная литература, 1985.

9. Задорная В. Восприятие и интерпретация художественного текста. М., 1984.

10. Голыгина К.И. Китайская проза на пороге средневековья. М., «Наука». 1983.

11. Пурпурная яшма. Китайская повествовательная проза. I-VI вв. М., «Наука».1980.

12. Лисевич И. С. Литературная мысль Китая.- М.: «Наука» , 1979.-Б . 195

13. Алексеев В.М. Китайская литература. М., «Наука». 1978.

14. Федеренко Н.Т. Древние памятники китайской литературы. М., «Наука». 1978.

15. Ожегов С. И. Лексикология. Лексикография. Культура речи. - М.: Высшая школа, 1974.

16. Азнаурова Э. С. К вопросу о природе стилистической функции слова // Сб. науч. трудов 1 МГПИИЯ им. М.Тореза. - М., 1973.

17. Азнаурова Э. С. Очерки по стилистике слова. - Ташкент: Фан, 1973.

18. Prushek Ya. Istoriya kitayskoy literature. – Praga, 1970. В. 46-48

19. Литература и фольклор народов Востока. М.: «Наука».1967.

Internet saytlari:

1. <http://gov.uz/uz/press/politics/14731>
2. www.google.com
3. www.literatura.com
4. www.zhongguovenxue.com
5. www.hanvan.com
6. www.xiandaihanyu.com